O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

402-TARIX guruh talabasi Raximboev Izzat Soatboevichning

5120300-TARIX (Mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) ta'lim yo`nalishi

bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Xorazm vohasining ibtidoy madaniyati**

**Ilmiy rahbar:** dots.Q.Sobirov

Urganch 2015-yil

*Bitiruv-malakaviy ishining titul varag'i*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix fakulteti**
(fakultet nomi)

**Tarix kafedrasi**
(kafedra nomi)

**Mavzu: "Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati"**
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)


**Bajaruvchi:** **Raximboev Izzat Soatboevich**

**Rahbar:** **t.f.n., dotsent. Q.Sobirov**


Urganch shahri
2015-yil

*2-ilova*

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti
(fakultet nomi)

Tarix kafedrasi
(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA
TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Raximboev Izzat Soatboevichga Universitet rektorining «**188 T&1**» - sonli 15-noyabr 2014-yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ishi bajarish uchun**:** ***„Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati"*** mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan *t.f.n. Q.Sobirov* bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: *Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, taqdimotdan iborat.*

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar **Prezident asarlari**; **Ilmiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т., "Шарқ", 1998.
1. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч.-Т., "Ўзбекистон", 2008.
2. Бижанов Е.Е. Археологические памятники Юго-Восточного Устюрта. Автореферат. кан. дисс. Нукус, 1967.
3. Итина М.А. Древности южного Хорезма. М., «Наука», 1991.
4. Мамбетуллаев М. Раскопки оборонительние сооружения Хивы. Вестник. ККФ., «Фан», УзССР.№4, 1992.

5. Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э.- IV в. н.э.) Автореферат, док.дисс. Ташкент, 1994.
6. Мамбетуллаев М. Формирование городов Хорезма//Тд МК. Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии.Самарканд, 1995.
7. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи Тошкент, "Университет", 2004.
8. Хожаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Т. "Ўзбекистон", 2007.
5. Bitiruv malakaviy ishga *taqdimot ilova qilinadi.*

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali**

| № | *Bajarilgan ishning mazmuni* | *Bajarish muddati* |
|---|---|---|
| 1 | Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash va adabiyotlar ro'yhatini tuzish. | 2014-yil Oktabr va noyabr oylari. |
| 2 | Adabiyotlar bilan tanishish va bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzish | Noyabr va dekabr oylari |
| 3 | 1.1. Xorazm vohasida antropogen landshaft va madaniy xo'jalik massivlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari | Dekabr va yanvar oylari |
| 4 | 1.2. Neolit davri manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar | Yanvar, fevral oylari |
| 5 | 2.1.Bronza davri madaniy xo'jalik massivlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi<br>2.2. Bronza davrida kechgan etnik jarayonlar va | Fevral va mart oylari. |

| | | |
|---|---|---|
| 6 | etnik makonlarning vujudga kelishi | Mart va aprel oylari. |
| 7 | Bitiruv malakaviy ishining kirish va xulosa qismini yozib tamomlash. | May oyida |
| 8 | Ilmiy rahbar tavsiyanomasi va taqrizchi domlaga yozgan ishni ko'rsatish, hamda xato va kamchiliklarini to'g'irlagan holda taqriz yozdirib olish. | May va iyun oylari |
| 9 | Ilova va taqdimot ishini tayyorlash va bitiruv malakaviy ishining rahbar tavsiyasiga ko'ra himoyasiga tayyorlanish. | Iyun oyida |

Bitiruv malakaviy ish rahbari: t.f.n. Q.Sobirov

Bajaruvchi talaba: I.Raximboev

2015 yil «____» ________________

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014- yil 28-noyabrda tasdiqlangan. «7» sonli bayonnoma

**Kafedra mudiri: t.f.n., dots.** Abdullaev Timur Po`latovich ________ (imzo)

*3-ilova*

## BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

**Talaba:** Raximboev Izzat Soatboevich

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: *„Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati''*

**Bitiruv malakaviy ish hajmi**: Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yhati, taqdimot.

**Tushuntirish qismi** 2 ta bob, 4 ta paragrafdan iborat

**Ilovalar soni**: -

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asrning 90-yillar boshlarida sho`ro jamiyatida yuz bergan tarixiy siyosiy voqealar „Qizil imperiya'' kengligini hosil qilgan ittifoqdosh respublikalarning mustaqil hayotini o`zlari istagan holda boshqarish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Mazkur imkoniyatdan foydalanishni o'zbek xalqi yurtboshimiz I.A.Karimov rahbarligida boshlab yubordi va bu jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan ishga 23 yildan oshdi. Mazkur tarixiy mazmunan qisqa davrda jamiyatimizning barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Vatanimiz milliy mustaqillikka erishganidan keyin asosiy e'tibor sho'ro davrida moddiy va ma'naviy merosni o'rganish borasida to'planib qolgan muammolarning ilmiy yechimini topishga qaratildi va ichki siyosatimizning ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz o`zining mustaqillikning ilk yillarida Vatan tarixi, jamiyatni yanada rivojlantirish, yoshlarni zaminga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy iqtisodimizni rivojlantirishning negizlarini ishlab chiqdi va shu asosda xalqimiz bunyodkorlik ishlarini boshlab yubordi. I.A.Karimov o`zining ilk asarida jamiyat rivojlanishining 4 negizini ishlab chiqqan edi.Chunonchi,

1.Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

2.Xalqimizning ma`naviy merosimizni mustahkamlash va rivojlantirish;

3.Insonning o`z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

4.Vatanparvarlik;

O'zbek xalqi asrlar davomida erkin hayot kechirish va shu asosda geografik xususiyatdan kelib chiqib, mavjud bo`lgan tabiiy boyliklarga tayangan holda

jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish uchun vujudga kelgan imkoniyatdan foydalanishni asosiy vazifa ekanligini anglagan holda kundalik hayotiga olib kirdilar. Shu ma'noda prezidentimiz „Yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg`ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ta'kidlash kerakki, mintaqalar tarixini o'rganishga keng imkoniyat vujudga keldi va o`lkalar tarixi tadqiqotlar uchun maxsus obyektga aylandi. Vatanimiz, uning tarkibiy qismi bo'lgan mintaqalar tarixini o`rganish davlatimiz ichki siyosatining asosiy yo`nalishi masalasi prezidentimiz I.A Karimov asarlarida o'z mazmun va mohiyatini ko'rsatib berdi. XX asrning 90-yillaridan keyin O`rta Osiyo davlatlarida milliy ehtiroslarga berilib, bir qator asarlar, maqolalar nashr qilindi va qilinmoqda. Ularning asosiy mazmuni shundan iborat bo`ldiki, yashab turgan hududlarini ilk etnik makon qilib, undagi aholi keyinchalik boshqa hududga ko`chib kelib joylashganligi qayd qilinardi. Bunday ilmiy asosga ega bo`lmagan fikr-mulohazalar O`rta Osiyoda kechgan etnik jarayonlar to`g`risida munozaraga aylanishi tabiiy hol. Tarixchilarning o`lkani qadimiy qilib ko`rsatishi, aholining shu yerdan tarqalishi to`g`risidagi g`oyalar hech bir vijdonli insonni befarq qoldirmaydi. XXI asr boshlarida prezidentimiz O'zbekiston Respublikasining ko`zga ko'ringan tarixchilari bilan bo`lgan uchrashuvidagi ma'ruzasida „Hozir O`zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat sharqda, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butunjahon tan olmoqda. Yuqorida qayd qilingan mintaqalarning joylashishi, tabiiy geografiyasi, aholisining asrlar davomida qilgan bunyodkorlik natijalari ilk davlatchilikning vujudga kelishiga, uning keyingi tarixiy davrlarda yanada rivojlanishida o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

**Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi** *Talaba Raximboev Izzat 4 yil davomida o'z mahoratini, qobiliyatini ishga solib tarixiy bilimlarni egallashga harakat qildi. Kelajakda u yaxshi mutaxasis va pedagog bo'lishi mumkin.*

**Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari** *Raximboev Izzat o'ziga*

*topshirilgan mustaqil vazifalarni a'lo darajada uddalay oldi. U ishni yozish davomida asosiy manbalar va arxiv hujjatlaridan, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalana oldi. Ko'chirmalardan foydalanishni, ularga nisbatan fikr bildirishni va tahlil qilishni o'rgandi. Talaba tartibli, a'lochi va unda muomala madaniyati yaxshi shakllangan.*

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari** *Bitiruv malakaviy ishi yangi adabiyotlar asosida milliy qadriyatlarimiz, mustaqillik mafkurasiga asosan, real va tarixga xolisona tarzda yoritilganligi ishning ijobiy qismini tashkil etadi.*

**Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi** *Bitiruv malakaviy ish hajmi, mohiyati va mazmuni jihatdan DTS va DAK talablariga to'la javob beradi.*

---

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:** t.f.n. Q.Sobirov.

2015 yil «29» may

*4-ilova*

**Urganch davlat universiteti**

**Tarix fakulteti**

**5120300-TARIX (Mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) ta'lim yo'nalishi**

**Raximboev Izzat Soatboevichning Bitiruv malakaviy ishiga**

# T A Q R I Z

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati**

**Bajardi: Raximboev Izzat Soatboevich**

**Malakaviy ishning hajmi** 12351 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 51 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: -

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:** Mavzuning dolzarbligi to'la yoritilgan

**Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati** *Talablar darajasida bajarilgan*

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar**. Fan-texnika innovastiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi **Prezident asarlari**, **Ilmiy adabiyotlar:** Итина М.А. Древности южного Хорезма. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари; Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi** *Bitiruv malakaviy ishi ilmiy xulosalarga asoslangan, ilmiy terminlardan ijobiy tarzda foydalanilgan . Uslubiy jihatdan ta'lim talablariga javob beradi. Prezentatsiyalar a'lo darajada ishlangan.*

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari** *Bitiruv malakaviy ishi o'zbek tilida, grammatik va orfagrafik xatolardan holi tarzda, zarur manba adabiyotlardan to'g'ri foydalanib yozilgan. Uning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan. Boblar va ulardagi paragraflar o'ziga mos tarzda ilmiy jihatdan yoritilgan. Ko'chirmalardan to'g'ri foydalanilgan. U DAK*

*talablariga javob beradi. Talabaning ilmiy ishidan referat, mustaqil ish va kurs ishlari, maqola yozishda foydalanish mumkin.*

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar** *Bitiruv malakaviy ishida bazi bir juziy kamchiliklar bor. Bu kamchiliklar ishning mazmun va mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi*

Taqrizchi: Urganch davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey

o`qituvchisi Yusupov Hamid.

imzo

2015 yil «24» iyun

*5-ilova*

**Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari**

| № | **Baholanadigan bo'limlar** | **Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida** |
|---|---|---|
| 1 | BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 |
| 3 | "Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 |
| 8 | BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 |

Eslatma: Har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

*6-ilova*

**Urganch davlat universiteti Tarix** Fakulteti

5120300-TARIX (Mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) ta’limyo`nalishining

bitiruvchisi **Raximboev Izzat Soatboevich**ning

**„Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati’’** mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning 2015 yil «____» ____________ dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatstiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o’zlashtirish ko’rsatkichlarini belgilaydi.

| **№** | **Baholanadigan bo’limlar** | **Eng yuqori ko’rsatkich ball hisobida** | **Komissiya belgilagan ball** |
|---|---|---|---|
| 1 | BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 | |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 | |
| 3 | “Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 | |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 | |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 | |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 | |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 | |
| 8 | BMI mavzusi bo’yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, | 10 | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | maqola (tezis) nashr qilinganligi | | |
| Jami: | | | |

Davlat attestatstiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _______ lik o’zlashtirish ko’rsatkichi belgilanish va «______» deb baholansin.

2.________________________________________________________________

DAK Raisi: A. Sagdullayev____________________________________

A’zolari:__________________________________________

2015 yil «______» ______________

*7-ilova*

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti Tarix kafedrasi

Bitiruv malakaviy ish ______ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi **Raximboev Izzat Soatboevich**

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi **„Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati''.**

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi dots. Q.Sobirov__________

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «_____»________da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey o`qituvchisi Yusupov Hamid tayinlandi.

Kafedra mudiri: dots.Abdullayev T.P.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: t.f.n. O. O. Shixov

*8-ilova*

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrasi

5120300-TARIX (Mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) ta'lim yo`nalishi bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani
dots.
"28" noyabr 2014 y.

## BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: **Raximboev Izzat Soatboevich**

1. Ishning mavzusi: **„Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyati''.**

2014-yil «15» noyabrdagi universitet rektorining «**188 T**»-sonli **§1** buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "2" iyun 2015-yil.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

4.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т., "Шарқ", 1998.

5. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч.-Т., "Ўзбекистон", 2008.

6.Бижанов Е.Е. Археологические памятники Юго-Восточного Устюрта. Автореферат. кан. дисс. Нукус, 1967.

7.Вишневская О.А. Рапопорт Ю.А. Городише Кюзелигыр. Квопросу о раннем эпохе истории Хорезма. М., «Наука», ВДИ. №2. 1997.

8. Итина М.А. Древности южного Хорезма. М., «Наука», 1991.

9. Мадаминов М.Р. Қадимги ва ўрта асрларда Хоразм қалъа қурилиши услуби ва унинг ўзига хос хусусиятлари. Вестник. ККО. Ан Руз. Вып. 1-2, 2004.

10. Мамбетуллаев М. Раскопки оборонительние сооружения Хивы // Вестник. ККФ., «Фан», УзССР. №4, 1992.

11. Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э.- IV в. н.э.) Автореферат, док.дисс. Ташкент, 1994.
12. Мамбетуллаев М. Формирование городов Хорезма // Тд МК. Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии.Самарканд, 1995.
13. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи Тошкент, “Университет”, 2004.
14. Хожаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Т. “Ўзбекистон”, 2007.

**4. Ishning maqsadi:** Bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqib, qo'yilgan muammoning dolzarbligini e'tiborga olgan holda, tadqiqotning maqsadi manbalarni har tomonlama puxta va xolis yoritish yo'li bilan mustaqillikning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil etish, to'plangan tajribani umumlashtirish, shuningdek, mavjud muammolarni o'rganishdan iborat.

**5. Chizma materiallar ro'yxati:**

**6. Maslahatchi:**Q.Sobirov

| Bo'limlar | Maslahatchi F.I.Sh. | Imzo, sana | |
|---|---|---|---|
| | | Topshiriq berdi | Topshiriq qabul qildi |
| 1.1 Xorazm vohasida antropogen landshaft va madaniy xo`jalik massivlarining vujudga kelishi | Q.Sobirov | 4.12.2014. 13.12.2014. | |
| 1.2. Neolit davri manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar | Q.Sobirov | 8.01.2015. 22.01.2015. | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1.3. O'rta Osiyo antik davr tarixining manbalarda aks etishi | Q.Sobirov | 5.02.2015. | |
| 2.1. Bronza davri madaniy xo'jalik massivlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi | Q.Sobirov | 2.03.2015.<br>6.04.2015. | |
| 2.2. Bronza davrida kechgan etnik jarayonlar va etnik makonlarning vujudga kelishi | Q.Sobirov | 29.05.2015. | |

**Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni:**

UrDU qoshidagi 2-son
Akademik litsey o'qituvchisi: Yusupov Hamid (F.I.Sh.) ________ imzo

Ilmiy rahbar: dots. Q.Sobirov (F.I.Sh.) ________ imzo

BMI bajaruvchi talaba: Raximboev I. S (F.I.Sh.) ________ imzo

Kafedra mudiri: dots.Abdullaev T.P. (F.I.Sh.) ________ imzo

**MUNDARIJA:**

Kirish……………………………………………………..…………………. **3**

I Bob.Quyi Amudaryo havzasi va unga ulanib ketgan Sariqamishbo'yi va O'zboy hududlari neolit davrida

1.1. Xorazm vohasida antropogen landshaft va madaniy xo'jalik massivlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari……….……………………………… **11**

1.2. Neolit davri manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar……………………… **24**

II Bob. Xorazm bronza davrida.

2.1. Bronza davri madaniy xo'jalik massivlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi……………………………………………….…………...…………….. **35**

2.2. Bronza davrida kechgan etnik jarayonlar va etnik makonlarning vujudga kelishi………..…………………………………………………………... **50**

Xulosa……………………………………………………….……………….. **60**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati…………………………..…………

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi**. XX asrning 90-yillar boshlarida sho`ro jamiyatida yuz bergan tarixiy siyosiy voqealar „Qizil imperiya'' kengligini hosil qilgan ittifoqdosh respublikalarning mustaqil hayotini o`zlari istagan holda boshqarish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Mazkur imkoniyatdan foydalanishni o'zbek xalqi yurtboshimiz I.A.Karimov rahbarligida boshlab yubordi va bu jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan ishga 23 yildan oshdi. Mazkur tarixiy mazmunan qisqa davrda jamiyatimizning barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Vatanimiz milliy mustaqillikka erishganidan keyin asosiy e'tibor sho'ro davrida moddiy va ma'naviy merosni o'rganish borasida to'planib qolgan muammolarning ilmiy yechimini topishga qaratildi va ichki siyosatimizning ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz o`zining mustaqillikning ilk yillarida Vatan tarixi,jamiyatni yanada rivojlantirish, yoshlarni zaminga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy iqtisodimizni rivojlantirishning negizlarini ishlab chiqdi va shu asosda xalqimiz bunyodkorlik ishlarini boshlab yubordi. I.A.Karimov o`zining ilk asarida jamiyat rivojlanishining 4 negizini ishlab chiqqan edi. Chunonchi,

1.Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

2.Xalqimizning ma`naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

3.Insonning o`z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

4.Vatanparvarlik[1];

O'zbek xalqi asrlar davomida erkin hayot kechirish va shu asosda geografik xususiyatdan kelib chiqib, mavjud bo`lgan tabiiy boyliklarga tayangan holda jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish uchun vujudga kelgan imkoniyatdan foydalanishni asosiy vazifa ekanligini anglagan holda kundalik hayotiga olib kirdilar. Shu ma'noda prezidentimiz „Yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg`ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o`g`il-qizlari etib

[1]Каримов И.А Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараккиёт йўли. Тошкент,1992-йил. 65-бет.

tarbiyalash masalasi asosiy yo'nalishimiz bo'lishi kerak'' deb qayd qilgan edilar.[2] Buning uchun istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, ajdodlarimiz madaniy merosini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Vatan, o`lka tarixini real manbalar asosida o`rganish, avvaldan mavjud bo`lgan vatanimiz tarixiga tegishli bo`lgan tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy baholab, yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida tariximizni o`qitish va o`rganish, mushohada qilish va shu asosda ilmiy tadqiqotlarni yaratish zamon ruhidan kelib chiqdi. Ta'kidlash kerakki, mintaqalar tarixini o'rganishga keng imkoniyat vujudga keldi va o`lkalar tarixi tadqiqotlar uchun maxsus obyektga aylandi. Vatanimiz, uning tarkibiy qismi bo'lgan mintaqalar tarixini o`rganish davlatimiz ichki siyosatining asosiy yo`nalishi masalasi prezidentimiz I.A Karimov asarlarida o'z mazmun va mohiyatini ko'rsatib berdi.

XX asrning 90-yillaridan keyin O`rta Osiyo davlatlarida milliy ehtiroslarga berilib, bir qator asarlar, maqolalar nashr qilindi va qilinmoqda. Ularning asosiy mazmuni shundan iborat bo`ldiki, yashab turgan hududlarini ilk etnik makon qilib, undagi aholi keyinchalik boshqa hududga ko`chib kelib joylashganligi qayd qilinardi. Bunday ilmiy asosga ega bo`lmagan fikr-mulohazalar O`rta Osiyoda kechgan etnik jarayonlar to`g`risida munozaraga aylanishi tabiiy hol. Tarixchilarning o`lkani qadimiy qilib ko`rsatishi, aholining shu yerdan tarqalishi to`g`risidagi g`oyalar hech bir vijdonli insonni befarq qoldirmaydi. XXI asr boshlarida prezidentimiz O'zbekiston Respublikasining ko`zga ko'ringan tarixchilari bilan bo`lgan uchrashuvidagi ma'ruzasida „Hozir O`zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat sharqda, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jahon tan olmoqda. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo`lganligidan dalolat beradi'' deb ta'kidlab, davlatchilik tarixini real ma'lumotlar asosida o'rganishni

[2] Каримов И.А Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т. Шарқ. 1995-йил. 204-бет.

tarixchilar oldiga dolzarb masala qilib qo'ygan edilar[4]. Davlatchilik tarixini o'rganishda mintaqalarda kechgan tarixiy siyosiy va iqtisodiy, madaniy jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Vatan tarixiga qiziqish ajdodlarimizdan meros qolganligi ma'lum. Shu ma'noda „Kimki tutmas qalbida tarixni, u inson ham emas olim ham emas. Biroq, kimki uqsa o`tmishini ko'p boyitar o'z turmushini'' deb ona tarixining inson hayotidagi o'rniga Shahobiddin Muhammad an Nasaviy yuqoridagi satrlarda dono va jonli qayd qilganligini eslashimiz lozim. Yuqorida qayd qilingan mintaqalarning joylashishi, tabiiy geografiyasi, aholisining asrlar davomida qilgan bunyodkorlik natijalari ilk davlatchilikning vujudga kelishiga, uning keying tarixiy davrlarda yanada rivojlanishida o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu ma'noda I.A.Karimov o'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo`yilgan. Shu ma'noda milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimgi davlatlar bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligiga oid ulkan ma'lumotlar, moddiy va yozma yodgorliklar to`plangan tarixni asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig`idir'' deb qayd etgan fikrini keltirish joiz[5].

Quyi Amudaryo havzasida shaharsozlik madaniyatini o`zbek davlatchiligining ajralmas tarkibi bo'lgan Xorazm vohasi davlatchiligining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini o`rganish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu muhim masalalarni hal etishda respublikamiz hayotining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlar boy tarixiy merosimizning keng o`rganilishi, an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir[6].

Qishloq va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jihatdan rivojlanishi jamiyatda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari

[4] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: "Шарқ", 1998; 3-31-бетлар.
[5] Каримов И.А. Хива шахринирг 2500 йиллигига багишланган халкаро симфозиумда сузлаган нутки. Халк сузи газетаси.1997-йил. 21-октабр.

rivojlanishi jamiyatda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari darajasini izohlaydi.

Xorazm vohasi qadimgi va ilk o’rta asrlar davri qishloq va shaharlarining rivojlanish tarixi o’zbek davlatchiligining tarixiy ildizlarini va uning rivojlanish bosqichlarini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazm vohasi Turon zaminining shimoli-g’arbiy qismida qadimgi davrdan boshlab, sug’orma dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri sifatida hamda arxeologik obidalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu o’lkaning qadimgi va ilk o’rta asrlar davri yodgorliklari, ularning keng ko’lamda o’rganilishi bu zaminning jahon madaniyatida Xorazm sivilizatsiyasi nomi ostida mustahkam o’rin olishiga asos bo’ldi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jihatidan yuksak darajada rivojlanishi esa shaharlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Geografik o’rin, tabiiy
rivojlanishi esa shaharlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Geografik o’rin, tabiiy
sharoit Xorazm vohasiga bir qator noqulayliklarni keltirib chiqargan, ular okean va dengizdan uzoqda joylashganligi, shimol tomondan sovuq, janub tomondan issiq havo massasiga to’siq bo’ladigan tog’lar yo’qligidir. Shimoli-sharqiy tomonda joylashgan Sulton Uvays tog’i Pomir, Tyanshan tog’laridek baland emas, shuning uchun ham shimoldan kelayotgan sovuq shamolga to’siq bo’lolmaydi. Lekin, shunday noqulayliklar mavjud bo’lishiga qaramay bu hududda miloddan avvalgi 40-12 mingyilliklardan boshlab, odamzod yashaganligidan guvohlik beruvchi arxeologik yodgorliklar mavjud bo’lib, ularda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan materiallar buni to’la tasdiqlaydi. Demak, Xorazm vohasida ham, O’zbekistonning boshqa tog’li hududlari singari, insoniyatning qadimgi madaniy izlari topib o’rganilgan. Qoraqalpog’iston Respublikasining Ustyurt hududidagi qadimgi tosh davri manzillarida (Esen, Shaxpaxta, Churuq, Aydobol) faoliyat olib borgan ibtidoiy odamlar miloddan avvalgi V mingyillikka kelib, Amudaryoning Aqchadaryo havzasi va Tuyamo’yin hududlariga kelib joylashgan(Kaltaminor madaniyati).

Xorazm vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari insoniyatning faoliyatida xo’jalik yo’nalishini belgilab, dastavval, o’zlashtiruvchi xo’jalik bo’lgan.

Ma'lumki, insoniyatning dastlabki faoliyatini aks ettirgan jamoalarda maxsus ijtimoiy xo'jalik turlari shakllanishida tarixiy-jo'g'rofiy mintaqalar alohida ahamiyat kasb etishi, tabiiy. Quyi Amudaryo g'arbda Ustyurt platosi, janub va janubi-g'arbda Qoraqum, sharqiy tomonda esa Qizilqum bilan chegaralanib, Shimolda Orol dengizigacha davom etgan. Quyi Amudaryo hududi pasttekislikdan iborat bo'lib, janubi-sharqiy, shimolga tomon biroz qiyalashgan holda, tekislikda sayoz chuqurliklar ko'p, quruq o'zanlar, tepalarning balandligi 4-6 metrgacha borgan. Toshsaqa hududi daryo sathidan 8-10 metr balandlikda, o'ng sohili esa past, yotiq bo'lib, atrofdagi yerlardan 1-3 metrni tashkil qilgan. Amudaryoning o'ng sohilining shimoli-sharqiy tomonida Sulton Uvays tog'i joylashgan bo'lib, uning balandligi 471 m.[7] Tog'da oltin, marmar, foydali qazilmalar ohaktosh, mergel, gips kabi qurilish ashyolari mavjud. Shimoli-g'arbiy tomonidagi Yumurtog' va Qubotog'larning balandligi 300m. Amudaryo havzasi Nukus shahri atrofidan boshlangan bo'lib, deltaning umumiy maydoni 144500 $km^2$. Amudaryo havzasining okean sathidan balandligi 100 metrga yetmaydi. Orol dengizi sohillarining okean sathidan balandligi o'rtacha 40 m. Amudaryo deltasiga har yili millionlab tonna loyqa oqib kelib, uning o'rtacha qalinligi 80 metrga borgan. Quyi Amudaryoning vujudga kelgan qadimiy havzasi antropogen allyuvial yotqiziqlardan (gil, gilli qum, qumloq, qumoq) bo'lib, uning qalinligi 20 m, ba'zi hududlarda 100 metrga borgan. Amudaryo Pitnak yaqinidan qisqarib, Tuyamo'yin tangligini hosil qiladi. Vodiyning kengligi 450-480 m, so'ngra esa yana kengayib, 10 kmni hosil qiladi. Sulton Uvays, Quyonchiq, Qoratov, Jumirtov past tog'lar orasida Amudaryo qisqarib oqadi. Amudaryo Nukus shahridan keyin Qipchoqdaryo, Oqdaryo, Erkindaryo, Ko'hnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlarga ajralgan. Delta hududida Qush Qamottog', Beltog', Borlitov, Qashqantov, Manqir, Tuzqir kabi qirlar mavjud. Bu o'lkaga shimoldan Arktika, shimoli-sharqdan Sibir sovuq shamollari bemalol kirib kelishi oqibatida qish O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda ancha sovuq, bahor kech, kuz

[7] Баратов П. Узбекистон табиий географияси.-Т.„Укитувчи'',1997. 154-162-бетлар.

shimoli-sharqdan Sibir sovuq shamollari bemalol kirib kelishi oqibatida qish O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda ancha sovuq, bahor kech, kuz ertaroq boshlanadi. Amudaryo o'zining qaltis harakatlari bilan vohaga bir qator noqulayliklarni keltirib turgan. 1925-yil Amudaryo To'rtko'l shahridan 8 km uzoqlikda oqib turgan bo'lsa, 1934-yilga kelib, 500 m qolgan. 1938-yil To'rtko'l shahrini daryoning toshqin suvi yuva boshlagan. 1959-yilga kelib, Amudaryo suvining toshishi natijasida butun shaharni bosib ketgan. Paxta monokulturasi davrida sug'oriladigan hududlarni kengaytirish maqsadida kengligi 181 m, balandligi 28 m bo'lgan 7 mlrd $m^3$ suv zaxirasini qamrab olgan, Tuyamo'yin suv ombori bunyod qilinishi natijasida 350 ming gektar yerlarning sug'orilish imkonini berdi. Vohada sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishida Polvonyop, G'azovot, Shovot, Qilichniyozboy, Toshsaqa, Mang'it, Qizketgan, Qirqqiz kabi yirik va hajmi kichik ichki sug'orish inshootlari muhim o'rin egallagan. Quyi Amudaryo havzasi tabiiy sharoit va tuproq o'simliklarining joylashish xususiyatiga qarab, Chimboy-Qo'ng'irot, Beltov va Xorazm kabi yirik tabiiy geografik hududlarga ajratish mumkin. Xorazm tabiiy geografik hududi Amudaryoning qadimiy havzasi bo'lib, daryoning qadimiy irmoqlari Daryoliq (Ko'hnadaryo), Davdon, Charmanyop, Tanidaryo tekisliklaridan iborat. 1960-yildan boshlab, Orol dengizida suvning sathi yildan-yilga pasayib, suvning umumiy hajmi 65 % ga kamaydi, tuz miqdori 2 barobar oshgan. Orol dengizining quruqlikka aylangan hududidan quruq tuz keng hududlarga tarqalib, insoniyat uchun salbiy oqibatlarning vujudga kelishiga olib keldi[8].

Voha hududi Turonning jo'g'rofik xaritasida asosiy tarixiy dehqonchilik markazlaridan Qizilqum orqali ajralib qolganday tasvirlansa ham, shu hududda sodirn bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar ta'sirida bo'lib, tarixiy-iqtisodiy birlikni hosil qilgan. Voha hududining tarixiy-geografik xususiyati ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, uning rivojlanish darajasi natijalaridan

[8] Курбаниязов Р. Хоразм географияси. Урганч, 1998. 6-36-бетлар.

xulosa qilib, shimoliy, markaziy va janubiy dehqonchilik vohalarga ajratish mumkin. Shunday qilib, Xorazm vohasining fiziko-geologik joylashishi geografik xususiyatini hosil qilib, antropogen landshaft asosida vujudga kelgan aholining xo'jalik-madaniy yo'nalishi shakllangan. Voha hududida faoliyat olib borgan qabilalarning Amudaryo irmoqlari sohillarida madaniy hayot va xo'jaliklarning rivojlanish tarixi arxeologik ma'lumotlar asosida bitiruv malakaviy ishining mazmuni yoritiladi.

Xorazmda urbanistik jarayon ta'sirida ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi, aholi markazlashadi, ishlab chiqarish markazlari bo'lgan shaharlar bunyod qilinadi. Tabiiy-iqtisodiy regionlar aholining kelib joylashishi va ko'p tarmoqli hunarmandchilik sohalarini rivojlantirib, shaharlar sari qadam tashlaydilar.

**Malakaviy ishning maqsad vazifalari.** Bitiruv malakaviy ish mavzusida quyidagi maqsad va vazifalarni bajarish belgilab olinadi:

- Xorazm vohasining geografik holati va antropogen landshaftini yoritish;
- Antropogen landshaft ta'sirida vujudga kelgan madaniy xo'jalik massivlarining rivojlanish jarayonini tahlil qilish;
- Madaniy xo'jalik massivlarining insoniyat tomonidan etnik makonga aylanishini qarab chiqish;
- Neolit va bronza davri odamlarining manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini izohlash;
- Xorazmning neolit va bronza davri manzilgohlari to'g'risida ma'lumot berish;
- Antropogen landshaft ta'sirida vujudga kelgan madaniy xo'jalik massivlarining rivojlanish jarayonini tahlil qilish;
- Madaniy xo'jalik massivlarining insoniyat tomonidan etnik makonga aylanishini qarab chiqish;
- Neolit va bronza davri odamlarining manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini izohlash;
- Xorazmning neolit va bronza davri manzilgohlari to'g'risida ma'lumot berish;

- Vohaning ibtidoiy madaniy tarixini mavjud bo’lgan adabiyotlardagi tarixiy ma’lumotlarni asos qilib yoritish;
- O’lka aholisining ibtidoiy madaniyati tarixini aks ettirgan tadqiqotni tayyorlash.

**Malakaviy ishning o`rganilish darajasi**

Sho’ro davri tarixshunosligida Xorazmning ibtidoiy madaniyati tarixining o’rganilish tarixini quyidagi davrlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. XX asrning 30-yillari o’rtalaridan 1941-yilgacha.
2. 1946-1990-yillar.
3. 1991-yildan hozirgacha bo’lgan davr.

**Birinchi tarixiy davr**da Xorazmda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi markaz tomonidan tashkil etilganligi tarixiy voqea bo’ldi. 1937-1940-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Quyi Amudaryo, Sariqamish bo’yi havzalari va O’zboyda qidiruv ishlarini olib borib, ibtidoiy madaniyatga mansub manzilgohlarni topib, ularni ro’yxatga oldi. Shu yillarda Oqchadaryo havzasidagi suv havzalari sohillariga tutashgan qumtepaliklar qirlariga ajdodlarimiz manzilgohlarini qurganlar. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko’ra, olingan ashyolar tahlili asosida ajdodlarimiz tarixi yoritiladi. Mazkur xo’jalikni olib borgan ajdodlarimiz xo’jaligi „Kaltaminor madaniyati’’ nomi bilan toponomik atamasi tarixiy adabiyotlar sahifalaridan o’rin oldi. Yonbosh-4, Kasat-7, Tolstov manzili nomida etnotoponomik tushunchalar o’lka tarixiga joylashdi. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, Yonbosh-4, Kasat-7, Tolstov manzillari yarim yerto’lalardan iborat bo’lgan. Ayniqsa, boy arxeologik materiallar Yonbosh-4 madaniy qatlamidan olingan edi.[9]

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Kaltaminorliklarning yangi avlodlari Quyi Amudaryo, Sariqamishbo’yi, O’zboy sarhadlarini o’zlashtirib, etnik makonlarga aylantiradilar.

**Ikkinchi tarixiy davr.** Mazkur tarixiy davrda Quyi Amudaryo havzasi va unga ulanib ketgan Sariqamishbo’yi, O’zboy hududlarida bronza davriga mansub ko’p

[9] Толстов С.П Древний Хорезм. Москва. „Наука’’ .1948.

sonli aholi manzilgohlarida arxeologik izlanishlar olib borilishi natijasida bronza jamiyatida sodir bo'lgan jarayonlarni yoritadigan ashyolar olindi va uning natijalari ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.[10]

Tadqiqotchilar S.P Tolstov, M.A Itina Quyi Amudaryo havzasining Oqchadaryo irmog'i suv sathining ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan suv havzalari sohili etaklariga tutashib ketgan qumtepaliklarda yarim yerto'la chaylalarni bino qilib, unumdor taqir yerlarda xo'jalik yo'nalishlarini olib borgan ajdodlarimiz Tozabog'yob va Suyorgan madaniyati nomi bilan Turon tarixidan o'rin oldi.[11]

1972-1975-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Tuyamo'yin suv ombori qurilishi munosabati bilan arxeologik qazish ishlarini olib borib, neolit va bronza davri tarixini yoritadigan ashyolarni olishga erishdilar. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, neolit va bronza davriga oid Tuyamo'yin suv ombori hududi va unga ulangan hududlarda Sulton Sanjar, Qushbuloq va Qarringaril atamasidagi manzilgohlardan moddiy ashyolar olingan.[12]

Oqchadaryo havzasida esa, Ko'kcha-3, Anqo-5, Qavat-3, Teshik 1-2 kabi 50 dan ortiq bronza davriga oid aholi manzilgohlari o'rganilgan.

Y.G' G'ulomov tadqiqotlarida Yonbosh 4,5,6,9,10,11,14,15,16,17,18 manzilgohlari Suyorganliklarga, Ko'kcha-15, Anqo-5, Qavat-3, Qum-1,3 manzillari Tozabog'yobliklarga xos bo'lgan.[13]

Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotlari tomonidan neolit, bronza jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini yoritgan maxsus tadqiqotlar nashr qilindi.[14] Ta'kidlash kerakki, Xorazmning neolit, eneolit va bronza davrlarida sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishini yoritadigan ashyolar tahlili Sho'ro davri mafkurasi „Kommunistik mafkura'' sharoitida nashr qilindi.

---

[10] Толстов С.П. По Древним делътам Окса и Яксарта. Москва. 1962.

[11] Толстов С.П, Итина М.А.Проблема Суярганской культуры // СА, №1, 1960. стр. 14-35.

[12] Древности южного Хорезма. Москва. 1991.

[13] Собиров К, Атамуратова Д. Марказий Осиё кадимги дунёси минтакавий ривожланишида Хоразм вохасининг тутган урни. // УзМУ хабарлари №3, 2011. 213-214-бетлар.

Shu bilan birga, mavjud bo'lgan monografiya, to'plam, risola va maqolalar orqali vohaning ibtidoiy davr madaniyati tarixiga oid umumlashgan yakuniy tadqiqot hanuzgacha ilmiy jamoatchilik hamda kitobxonlar ommasi e'tiboriga havola qilingan emas. Neolit va bronza davri tarixi, ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini faqat yoritishdan iborat bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ibtidoiy madaniyat tarixini qamrab olgan tadqiqotchilar asarlari hanuzgacha yangi jamiyat ruhidan kelib chiqib nazariy tahlil qilingan emas. Shu sababdan, mazkur bitiruv malakaviy ishida asosiy e'tibor voha aholisining neolit, bronza davrlarida olib borgan turmush tarzi, xo'jaliklari tarixini yangicha qarash va yondashuvlar asosida yoritish belgilab olindi.

Uchinchi tarixiy davr birinchi va ikkinchi tarixiy davrlardan o'zining mazmun va mohiyati bilan farqlanadi. O'zbek qadimshunos olimlar o'z o'lka tarixini erkin va real ma'lumotlarga tayangan holda yoritish imkoniga ega bo'ldilar.

Xorazm ekspeditsiyasi faoliyati tugadi. Qoraqalpog'istonlik olimlar Avstraliyaning Sidney Universiteti olimlari bilan Beruniy tumanidagi Oqshaxanqal'a va Toshxirmontepada arxeologik izlanishlarni olib borib, antik dunyo tarixiga oid noyob materiallarni olishga erishdilar. Ammo ularning ilmiy yo'nalishida ajdodlarimizning ilk faoliyatini o'rganish ilmiy maqsad qilib belgilanmagan. Shuning uchun ham ularning e'lon qilgan ma'lumotlarida ibtidoiy madaniyat tarixi aks etmaydi.

Xorazm viloyati hududida o'troq ziroatkor aholi tomonidan qoldirilgan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganishga keng yo'l ochib bergan ilmiy voqea Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tashkil etilishi bo'ldi. Xorazm Ma'mun akademiyasi va Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti birlashgan arxeologik guruhi Xazorasp, Toshqal'a-2, Meshekli, Katqal'a (Shovot), Qalajiq, Xumbuztepa va Sandiqlitepalarda arxeologik izlanishlarni olib borishi natijasida yangi materiallar olindi, Xazorasp shahrining tarixiy sanasi bir asrga uzaytiriladi. Ta'kidlash kerakki, Xorazm viloyati hududida neolit, eneolit, va bronza davriga mansub aholi markazlari topilmagan. Mustaqillik yillarida arxeolog olimlar asosiy

e'tiborni antik va ilk o'rta asrlar tarixiy obidalarini o'rganishga qaratganlar. Uchinchi tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri miloddan avvalgi V – milodiy XIII asr boshlarigacha jarayonni yoritish hisoblanadi. Tadqiqotchilar Xorazm tarixiga oid bo'lgan adabiyotlar, to'plam, risola va maqolalarda qayd qilgan ma'lumotlarni qiyosiy-nazariy tahlil asosida asarlarni nashr qilmoqdalar.

**Malakaviy ishning manbasi.** O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A Karimovning Xorazm tarixiga oid bildirgan fikr-mulohazalari nazariy manba bo'ldi. Sho'ro davrida S.P Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Quyi Amudaryo, Sariqamishbo'yi, O'zboy sarhadlarida ibtidoiy jamoa tuzumiga aloqador bo'lgan maqolalarda olib borilgan qazishmalar natijalari tahlili asosida e'lon qilingan tarixiy adabiyotlar, risola, maqola, tezislar va to'plamlardagi ma'lumotlar asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

**Malakaviy ish obyekti.** Ishning obyekti qilib Quyi Amudaryo havzasining ibtidoiy davri tarixi belgilab olindi.

**Mavzuning predmeti.** Quyi Amudaryo havzasining ibtidoiy madaniyati tarixini arxeologik va antropologik asosda yoritish.

**Malakaviy ishning ilmiy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ish mazmunini hosil qilgan ma'lumotlarning ilmiy ahamiyati quyidagicha:

- Amudaryo faoliyati natijasida vujudga kelgan Xorazm vohasining iqlim sharoiti, antropologik landshafti qarab chiqildi;
- Voha sarhadida ilk madaniy-xo'jalik massivlar to'g'risida ma'lumot berish;
- Insonlarning Xorazm vohasini o'zlashtirish jarayoni yoritildi;
- Neoloit davri manzilgohlari to'g'risida va ularning arxeologik jihatidan o'rganilish darajasi qarab chiqildi.;
- Bronza jamiyatiga tavsif berildi;
- Bronza davrida madaniy-xo'jalik massivlari to'g'risida ma'lumot berildi;
- Aholi maskanlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yoritildi;
- Ibtidoiy madaniyat tarixiga bag'ishlangan tadqiqot tayyorlandi.

Bitiruv malakaviy ish mazmunini tashkil qilgan tarixiy dalillar respublika umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, universitet va

pedagogik institutlar barcha fakultetlari I-bosqich talabalari, o’quvchilari O’zbekiston tarixining ibtidoiy jamiyat tarixini o’qitish va o’rganishda nazariy manba bo’lib hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy o’quv yurtlariga test asosida qabul qilinadigan abituriyentlar uchun ham o’z bilimlarini oshirishga yordam berishi shubhasiz.

**Mavzuning xronologik davri.**

Malakaviy ishning xronologik davri ibtidoiy jamiyat davrini qamrab olgan.

**Malakaviy ishning tuzilishi.** Kirish, ikki bob, 4 ta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Hajmi 55 betni tashkil etdi.

# I bob Quyi Amudaryo havzasi va unga ulanib ketgan Sariqamishbo’yi va O`zboy hududlari neolit davrida.

## 1.1 Xorazm vohasida antropogen landshaft va madaniy xo’jalik massivlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari

Yangi O’zbekistonning geografik xaritasiga nazar solsak, Xorazm vohasi hayotbaxsh azim Amudaryo orqali ikki qismga, ya’ni o’ng va chap sohilga bo’lingan. O’ng sohil sarhadlarini Qizilqum tasvirlaydi, u Amudaryoning Oqchadaryo irmog’i orqali g’arbiy va sharqiy Qizilqumga ajralgan.So’l sohilning sarhadlari Qoraqum bilan chegaralangan. Vohaning janubiy hududi Pitnak shahridan boshlanib Orol dengizi sohiligacha yetib borgan.

Mahalliy geograf olimlarning tadqiqotlari natijalariga ko’ra, ieogenning boshlarida (25-10 mln yillar oralig’ida) Orol bo’yi va Qizilqum pasttekisligi tarkib topgan.

Orol cho’kmasi yuqori ieogenning (plitsion) oxiriga kelib tarkib topa boshlaydi.Tatis dengizi regressiyasidan keyin O’rta Osiyo hududida paleogeologik va paleogeografik o’zgarishlar sodir bo’lishi boshlangan. Bu o’zgarishlar yer geologiyasining butun to’rtlamchi davrini qamrab olgan. Apsheron davrida Orol cho’kmasini ikkinchi marta Kaspiy suvi bosgan.

Amudaryo so’l sohilidagi Davdon va Daryolik o’zanlari suvlari Qoraqum markazidagi botiqda to’plana boshlaganligi sababli doimiy harakatdagi suv havzasining paydo bo’lishiga olib kelgan. Mazkur botiq suvga to’yinishi natijasida, katta hajmli suv havzasi vujudga kelgan. Ko’l sohillari sariq rangli qamishzorlarga boy bo’lib, u Sariqamish ko’li atamasida mahalliy aholi tomonidan doimiy ravishda ishlatilishiga va tarixiy-geografik adabiyotlarda mustahkam o’rin olishiga zamin bo’ldi. Mazkur ko’l chuqurligi jihatidan Orol dengiziga qaraganda ustunlik qilgan (61 m), ammo, hajmi jihatdan 5 marta kichik. Daryoning o’ng sohilidan Forob aholi punktidan Sho’roxongacha bironta irmoq ajralib chiqmaydi  yoki biron bir daryo kelib qo’shilmaydi.

So’l sohilida esa Xonqa va Urganch o’rtasidan Davdon, Yangibozor tumani hududidan Daryoliq irmog’i ajralib chiqqan.

Geologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Amudaryoning Davdon, Daryoliq irmoqlari faoliyatlari asosida janubiy va markaziy sarhadlar Kaynozoy erasining to'rtlamchi davr o'rtalarida asrlar davomida shakllangan bo'lsa, mazkur eraning oxiriga kelganda esa Orolbo'yi janubiy va sharqiy havzalari Amudaryoning asosiy irmoqlari (Qipchoqdaryo, Qozoqdaryo va bir necha shahobchalari) hamda Sirdaryoning Jonadaryo, Quvondaryo va eski Daryolik faoliyatlari natijasida Orolbo'yi havzasi shakllangan.[14] Xorazm vohasining geografik joylashish holati quyidagicha: Mazkur tabiiy-geografik hudud Qoraqum va Orol dengizi oralig'i tekisligini hosil qiladi. Vohaning sharqiy qismi Amudaryo va Qizilqum oralig'ida joylashgan. Hududning shakllanishi ikki qismdan iborat, ya'ni qadimgi va hozirgi zamon havzasi. G'arbda Ustyurt, janubda Ungizorti Qoraqum, sharqda Qizilqum, shimolda Orol dengizi mavjud. Asosiy maydoni 46 ming km$^2$. Havza janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomon cho'zilgan bo'lib, shu tomon kengayib boradi va maydoni 46 ming km$^2$. Havza janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomon cho'zilgan bo'lib, shu tomon kengayib boradi va Qoraqum bilan dehqonchilik vohasi tutashib ketadi. Voha Tuyamo'yindan boshlanib, Orol dengizigacha davom etadi, uzunligi 400 km, kengligi bir xil emas. Masalan, Tuyamo'yin kengligida 10-12 km Amudaryoning qadimiy deltasi boshlanadi. U shimoli-g'arbga tomon kengayib boradi. Mazkur tekislik kengligi 75-80 km. Quyi Amudaryo yotqiziqlari yoshi va tuproq tuzilishi bir xil emas. Eng qadimiy hududlar bo'r yotqiziqlaridan, uning ustki qismini paleogen, neogen va antropogen jinslar qamrab olgan. Qadimiy hudud gil, gilli qum,qumoq, qumloq bo'lib, uning qalinligi 20 m, ba'zi joylarda 100m. Orol dengizi janubiy qismi qumoq, qumloq, gil bo'lib, ular tarkibida har xil tuzlar bor, ba'zi joylar botqoqlik. Qadimiy hududlarda yer yuzasidan nisbiy balandliklari 60-80 m. Bular, Quyanchiq, Qoratov, Jumirtov, Borlitov, Beltov, Manqir, Tuzqir, Tarimqiya, Zangibobo va hokazolar.

Quyi Amudaryo havzasi shimoliy, shimoli-g'arbiy qismida joylashganligi tufayli, qish nisbatan sovuq, yozi issiq, quruq va serquyosh.

[14] Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. - Т.: "Ўқитувчи", 2002; 283-бет.

Xorazm vohasining vujudga kelishida Amudaryo faoliyati o'rin tutgan. Amudaryo Orol dengizi tomon tarmoqlarga bo'linib oqadi. Amudaryo Pitnak yaqinida qisqaradi, Tuyamo'yin qisig'ini hosil qiladi, ya'ni 450-480 m tushib qolgan, so'ng yana kengayib, uning kengligi 10 km ni tashkil qiladi. Sulton Uvays, Qulnchiq, Qoratov va Jumirtov past tog'liklar orasida tanglikda oqadi. Daryo Nukus shahri yaqinidan yana tarmoqlarga bo'linib ketadi, ular: Qipchoqdaryo, Oqdaryo, Erkindaryo, Ko'hnadaryo, Toldiqdaryo va Qozoqdaryo. Ular hozirgi vaqtda Orol dengizigacha yetib bormaydi. Voha yer yuzasini tog'lar, balandliklar bilan birga ko'llar ham tashkil qiladi. 100 dan ziyod ko'llar mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 285 $km^2$. Sariqamish ko'li – 127,24 $km^2$ ga teng. Katta ko'llari Sudoche, Xo'jako'l, Sho'rko'l va hokazo. Quyi Amudaryo havzasi quyidagi tabiiy-geografik rayonlarga bo'linadi:

1. Chimboy – Qo'ng'irot geografik rayoni.
2. Beltov tabiiy-geografik rayoni.
3. Xorazm tabiiy-geografik rayoni[15].

Amudaryo o'ng sohili sarhadlarining vujudga kelishi va shakllanishi, sernam va serunum bo'lishida Oqchadaryo irmog'i muhim o'rin egallagan. To'rtlamchi davrgacha bo'lgan davrda Quyi Amudaryo havzasining geologik tarixi quyidagicha manzarada bo'lgan. Geologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston hududi geologik taraqqiyotida ko'plab paleotektonik va paleogeografik jarayonlarni o'tagan. Uning geologik tarixini yuqori arxey davridan boshlab tiklash mumkin. Yuqori Karbek oxiri va Perm davrlarida Ustyurt platosi, Amudaryo havzasi quyi qismlarini dengiz suvi bosgan. Miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda Davdon va Daryoliq, uning irmoqlari suvining to'xtovsiz kelib turishi natijasida Sariqamishbo'yi suv sathi ko'tarilib, ko'p sonli suv havzalari va botqoqliklarnihosil qilgan. To'rtlamchi davrning so'ngida Orol bo'ylari pasayib To'rtko'l shahri yaqinidan Amudaryo o'ng sohilidan Oqchadaryo irmog'i ajralib chiqib, uchburchak shaklda qumtepaliklar o'rtasidagi keng yo'lak orqali shimol

[15]Баратов П.Ўзбекистон табиий географияси.-Тошкент: „Ўкитувчи'', 1996. 157-162-бетлар.

tomondagi botiqqa shiddat bilan tik tarzda yo'nalgan. Taxiatashdan keyin Amudaryoning Qipchoqdaryo, Erkindaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo irmoqlari suvlari Orol dengiziga quyilgan. Oqchadaryo irmog'i Orolga yo'nalgan bir vaqtda Sirdaryoning to'rtta irmog'i (Jonadaryo, Inkordaryo, Quvondaryo, eski Daryoliq) Orol dengizi tomon yo'nalishi bilan Orolbo'yi havzasi shakllangan. Amudaryo va Sirdaryo suvi tarkibidagi mineral ashyolarning yotqizilishi natijasida Xorazm vohasi, Amudaryoning Davdon, Daryoliq irmoqlari faoliyati asosida Sariqamishbo'yi havzasi shakllangan.

Arab sayyoxi Ibn Rusta geografiyasida Xorazm vohasi Amudaryoning Orolga quyilishi va uning janubiy sohillari to'g'risida muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Akademik Y.G' G'ulomov tadqiqotida qayd qilingan Amudaryo Surxon vohasi pasttekisligidan keyin asta-sekin kengayib borib, Chorjo'y shahri yaqinida uning kengligi 25 km bo'lgan bo'lsa, Darg'onota va Jigarbandgacha bo'lgan masofada uning kengligi 10 km bo'lgan. Duldul otlagan joyda Amudaryo kengligi 358 metrga qisqargan. U Duldul otlagandan keyin kengaygan holda Tuyamo'yin hududiga kirib kelishi bilan kenglik darajasi qisqargan. Yonboshqal'a tepaligi atroflarida antropogen landshaft ta'sirida qulay geografik muhit va tabiiy sharoitga ega bo'lgan sernam va serunumli doimiy bo'lmagan massivlar vujudga kelish jarayoni kechgan.[16]

Mazkur davrda faqat Oqchadaryo insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan va uchta madaniy xo'jalik massivlari vujudga kelgan (Yonbosh-4, Qavat-7, Tolstov manzili).

Miloddan avvalgi IV-III mingyilliklarga kelib, Amudaryo suvi satxi ko'tarilishi munosabati bilan Yonboshqal'a tepaligi janubiy, janubi-g'arbiy, va janubi-sharqiyda yangi massivlar, Tuyamo'yin zonasida, Sariqamishbo'yi va O'zboy atroflarida mavjud bo'lgan suv havzalari yoqalarida antropogen landshaftli massivlar vujudga kelgan. Sirdayoning Jonadaryo irmog'i faoliyati natijasida

[16]Андрианов Б.В Земледелия наших предков. Москва. „Наука'' 1978, стр. 108-110.

shimoli-sharqiy  Orol dengizi havzasida kam sonli doimiy harakatda bo'lmagan suv havzalari sohillari etaklarida antropogen landshaft ta'sirida doimiy bo'lmagan massivlar vujudga kelgan. Sirdayoning Jonadaryo irmog'i faoliyati natijasida shimoli-sharqiy  Orol dengizi havzasida kam sonli doimiy harakatda bo'lmagan suv havzalari sohillari etaklarida antropogen landshaft ta'sirida doimiy bo'lmagan massivlar vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi II mingyilliklarda Davdon irmog'i faoliyati goh ko'tarilib, goh pasayib turishi davom etganligi bois, Sariqamishbo'yi, O'zboy sarhadlari atroflaridagi suv havzalari sohilida avvalgi antropogen landshaftli massivlar faoliyati barham topgan. Aksincha, Amudaryo suv rejimi ko'tarilishi munosabati bilan Oqchadaryo havzasi, Tuyamo'yin zonasi atroflarida yangi suv havzalari vuvjudga kelgan, yangi-yangi massivlar hosil bo'lgan. Amudaryo suv sathi keskin ko'tarilishi Yonboshqal'a tepaligi shimoli-sharqidagi qumtepaliklar oralig'idagi yo'lakka shiddat bilan yorib kirishi natijasida Qizilqum bilan chegaralangan pastqam hududlarda doimiy harakatda bo'lmagan Suyorgan atamasida ko'llar tizimi vujudga kelgan. Mazkur suv havzalari va ko'llar sohillari etaklarida mavsumiy antropogen landshaftli bir-biriga zich massivlar hosil bo'lgan. Tuyamo'yin regionidagi massivlar faoliyati davom etgan.

Amudaryo Tuyamo'yin darasidan keyin yana kengayib, Toshsaqa hududigacha davom etgan. Daryo kengligi Toshsaqa hududiga kelganda birmuncha qisqargan. Toshsaqadan keyin u o'ng va so'l tomonga kengaya boshlagan. Amudaryo Kat yaqinidan o'tgach, so'l tomoni kengayib ketgan. Uning suv sathi ko'tarilishi bilan o'ng va so'l sohillarda botqoqlik vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi V ming yillikdan boshlab, Xorazm vohasi va unga tutashib ketgan Sariqamishbo'yi atroflarini qamrab olgan keng bepoyon sarhadlarning Amudaryo faoloiyati natijasida Turonning asosoiy tarixiy-geografik mintaqaviy rivojlanishining manzarasini namoyon qilgan madaniy xo'jalik markazlaridan geologik jihatidan ajralib qolganligi kuzatiladi, ammo bu alohidalik mazkur sarhadda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy

munosabatlarning rivojlanishiga manba bo’lgan hududiy-iqtisodiy birlik va etnomadaniy hamkorlik qadimgi jamiyatida o’z ma’nosini topishga monelik qilmagan. Miloddan avvalgi  V-I ming yillik o’rtalari Quyi Amudaryo va Sariqamishbo’yi sarhadlarida Amudaryo dinamikasiga asoslangan suv havzalari, qor va yomg`ir suvlarining to`planishi natijasida hosil bo`lgan ko`llar sohili yoqalarida antropogen landshaft ta`sirida tabiiy-iqtisodiy manbalarga boy bo`lgan geografik hududi aniq bo`lmagan massivlar hukmron bo`lgan.

Miloddan avvalgi VI asrning oxiridan boshlab, Qoraqum Ungizidan keyin Amudaryo asosiy suvini olgan Davdon irmog`i faoliyati natijasida Oqchadaryo irmog`i faoliyati yakun topishi qum barxanlari o`rtasida mavjud bo`lgan suv havzalari o`rni inson panjasidan bo`lakchalarga bo`lingan taqir hudud hosil bo`lgan.

Xorazm geografiya fani tadqiqotchisi R.Qurboniyozov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Quyi Amudaryo va uning hududiy tizimini hosil qilgan Sariqamishbo’yi, O`zboy va Orolbo`yi sarhadlari yuzasining geologik jihatidan tuzilishi to`rt tipga ajratilganini kuzatish mumkin. Qadimgi kristall jinslardan tashkil topgan sarhadlar (Yumurtog`, Qubatog`, Sulton Uvays tog`i va Orolbo`yi hududlari), Amudaryoning o`ng sohilidagi bo`r yotqiziqlardan tarkib topgan sarhadlar, Tuyamo`yin atroflarida paleogen davri jinslaridan iborat bo`lgan tekisliklar, neogen jinslardan iborat bo`lgan Zanguzi Qoraqum atroflari. Geografik ma`lumotlarga ko`ra, O`zboy va Quyi Amudaryo sarhadlarini Chimboy-Qo`ng`irot, Beltov va Xorazm tabiiy-geografik iqtisodiy regionlarga ajratgan. Albatta, mazkur tabiiy-geografik zonalar geografik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Endi, yuqorida qayd qilingan geologik va geografik adabiyotlardagi tarixiy ma`lumotlarga asoslangan holda, Ungizi Qoraqumdan Orol dengizigacha pasttekislikning tabiiy sharoiti, geografik holati va antropogen landshaftining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini yoritamiz.

Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Tuyamo`yin atroflari va Sariqamishbo`yi sarhadlarida Amudaryo suv sathi ko`tarilishi munosabati bilan

tabiiy ravishda to`plangan suv havzalari atrofida antropogen landshaft ta`sirida qulay geografik muhit va tabiiy sharoit sernam hamda serunum doimiy bo`lmagan mitti-mitti massivlarning shakllanishiga olib kelgan (Sariqamish va Kaparas vohasi). Demak, miloddan avvalgi V ming yillikda Sariqamish havzasining g`arbiy va janubi-g`arbiy (Davdon irmog`i havzasi, O`zboy atroflari) sarhadlari insoniyatning kelib joylashib, xo`jalik yo`nalishlarini olib borishi uchun qulay sharoit mavjud bo`lishi bilan birga, o`simlik va hayvonot olamiga boy bo`lgan.

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga kelib, Amudaryo suvi sathining keskin ko`tarilishi munosabati bilan Yonboshqal`a tepaligi atroflarida, Tuyamo`yin zonasida, Sariqamishbo`yi va O`zboy atroflarida mavjud bo`lgan suv havzalari yoqalarida antropogen landshaftli massivlar faoliyati davom etgan.

Miloddan avvalgi II ming yilliklarga kelib, Davdon va Daryoliq irmoqlari faoliyati goh ko`tarilib, goh pasayib turishi davom etganligi bois, Sariqamishbo`yi va O`zboy sarhadlari atroflarida mavjud bo`lgan suv havzalari sohilida avvalgi antropogen landshaftli massivlar barham topgan. Aksincha, Oqchadaryo havzasi va Tuyamo`yin zonasi atroflarida yangi-yangi suv havzalari vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Amudaryo suvini ma`lum darajada Davdon va Daryoliq irmoqlari qamrab olganligi munosabati bilan Oqchadaryo irmog`ida suvning goh-gohda paydo bo`lishi natijasida bir-biriga zich joylashgan massivlar faoliyati barham topgan bo`lsa, Sariqamish havzasi faoliyati tezlashadi. Tuyamo`yin va Toshsaqa zonasi faoliyati qisman davom etgan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Toshsaqa zonasi faoliyati yanada rivojlanadi. Miloddan avvalgi IV - milodiy IV asrlarda Amudaryoning o`ng va so`l sohiliga ulanib ketgan sarhadlarda madaniy-xo`jalik markazlar va mikrovohalar favqulodda suratda vujudga kelish jarayoni bir tarixiy jarayonda kechganligi yaqqol ko`zga tashlanadi. Xorazm vohasi sarhadining geologik davomi bo`lgan Sariqamishbo`yi sarhadida va Tuyamo`yin zonasida aholining bunyodkorlik faoliyati davom etadi (Kaparas, Sarvar, Jigarband, Xazorasp). Amudaryoning o`ng va so`l sohillari hududlarida izchilma-izchil madaniy-xo`jalik markazlar va uning tarkibini hosil qilgan mikrovohalar shakllanishi yuz bergan.

Miloddan avvalgi IV - milodiy IV asrlarda Amudaryoning o`ng sohili sarhadlaridagi madaniy-xo`jalik markazlar:

Mazkur tarixiy davr jamiyatida kechgan ijtimoit-iqtisodiy va madaniy munosabatlar rivojlanish darajasidan kelib chiqib, ikki tarixiy davrga ajratib o`rganish maqsadga muvofiq. Birinchi tarixiy sana: Miloddan avvalgi IV-I asrlar, ikkinchi sana esa milodiy I-IV asrlar.

Miloddan avvalgi IV-I asrlar tarixiy sanasi dialektikasida Amudaryoning o`ng sohili sarhadlarini urbanizatsiya jarayoni jadal suratda qamrab olishi kuzatiladi. Kaltaminor kanali faoliyati mavjudligi bois, Ding`ilcha madaniy-xo`jalik markazi va uning massivlari faoliyati davom etgan. Kaltaminor kanalidan janubi-sharqiy tomonga shaxobcha chiqarilishi natijasida, Ding`ilcha markazi tarkibida navbatdagi mikrovoha vujudga kelgan (Eresqal`a). Mazkur sug`orish inshootidan o`ng tomonga Yonboshqal`a tepaligi sari kengligi 15 m, sohil ko`tarmasi 1,5 m bo`lgan shaxobcha chiqarishi munosabati bilan, uning sohili sarhadlari atroflarini qamrab olgan madaniy-xo`jalik markaz vujudga kelgan. Kaltaminor kanalidan g`arbiy tomon shaxobcha chiqarilib, uning sohilidagi shimoliy qismi tekisligida madaniy-xo`jalik markazi shakllangan (Bozorqal`a).

Kaltaminor kanalidan g`arbiy tomonida Yonboshqal`a tepaligi yon qismida aholi maskani qad ko`taradi, bu esa navbatdagi mikrovohani hosil qiladi (Yonboshqal`a). Kaltaminor kanalidan shimoli-g`arbiy tomon tekislikka eni 10 m, ko`tarma balandligi 5 m, chuqurligi 3-4 m shaxobcha chiqarilib, uning sohili atroflarini qamrab olgan mikrovoha vujudga kelgan (Qo`rg`oshinqal`a). Kaltaminor kanali o`rta qismidan janubi-g`arbiy tomondagi tekislikka shaxobcha chiqarilgani bois, atroflarini qamrab olgan mikrovoha tarkib topgan (Qo`yqirilganqal`a). Ikkinchi yirik sug`orish inshooti Tozabog`yob bo`lib,uning shimol tomon yo`nalishi Burgutqal`a vohasini ikki qismga ajratgan. Tozabog`yob kanali katta va kichik Guldursun o`rtasidan o`tib, shimoli-g`arbiy tomonda joylashgan Qumbosganqal`a, Qirqqizqal`a tomon yo`nalgan. Kanaldan shimol tomonga chiqarilgan shaxobcha Sulton Uvays tog`i tizimiga kirgan Ayozqal`a 1,2,3 yodgorliklari vauning atroflarini suv bilan ta`minlagan.

Tozabog`yob magistral kanalidan qirg`oq ko`tarmasi 9,5 m, chuqurligi 4 m bo`lgan sug`orish inshooti Norinjonbobo ilk o`rta asr yodgorligi omon chiqarilgan. Burgutqal`a vohasida mavjud bo`lgan sug`orish inshootlaridan ikki yon tomonga shaxobchalar chiqarilishi bir-biridan ajralgan bir necha madaniy-xo`jalik markazlarining shakllanishiga olib kelgan. Tozabog`yob magistral kanalidan shimoli-g`arbiy tomonga chiqarilgan Qirqqizqal`a va Tuproqqal`a sug`orish inshooti bir-biridan ajralib chiqqan joyda madaniy-xo`jalik markazi tashkil topgan (Katta Guldursun). Tozabog`yob kanalidan eni 12 m, ko`tarmasi 11 m, chuqurligi 4 m shaxobcha Qirqqizqal`a tomon chiqarilishi munosabati bilan, uning sohili qirg`og`idagi balandlik atroflarini qamrab olgan mikrovoha paydo bo`lgan (Qirqqizqal`a). Uchinchi magistral sug`orish inshooti Amirobod bo`lib, u shimol tomonga yo`nalib, uning adog`ida madaniy-xo`jalik markazi vujudga kelgan (Dumanqal`a). Dumanqal`adan shimoldagi Jildiqqal`a tomon shaxobcha chiqarilgan. Amirobod kanalidan shimoli-g`arbiy tomon kanal chiqarilgan, uning sohilidagi tekislikni qamrab olgan madaniy-xo`jalik markazi vujudga kelgan (Tuproqqal`a Ellikqal`asi). Tuproqqal`a sug`orish inshootidan janubi-g`arbiy tomonga shaxobcha chiqarilishi bois, uning sohiliga ulanib ketgan pasttekislikda madaniy-xo`jalik markazi shakllangan (Aqshaxonqal`a). Mazkur sug`orish inshootidan shimoliy tomonga navbatdagi chiqarilgan shaxobcha yangi mikrovohani vujudga keltirgan (Toshxirmontepa).

Milodiy I-IV asrlarga kelib, Amudaryoning o`ng sohilidagi Tuyamo`yin va Toshsaqa Ding`ilja, Bozorqal`a, Toshxirmon, Burgutqal`a, Katta Guldursun va Kat sarhadlarida madaniy markazlar faoliyati davom etadi. Tuproqqal`a sug`orish inshooti qisman faoliyat olib borishi natijasida Tuproqqal`a markazida madaniy-xo`jalik hayot qisman davom etgan bir vaqtda, Tuproqqal`a sug`orish inshootidan shimoli-g`arbiy tomonga chiqarilgan shaxobcha etagida mikrovoha shakllangan. (Qizilqal`a). Kaltaminor kanalidan janub tomon eni 12 m, qirg`oq ko`tarmasi 1 m, chuqurligi 11 m shaxobcha chiqarilib, uning sohili yaqinidagi tekislikda mikrovoha tashkil topgan (Anqaqal`a). Sulton Uvays tog`i Qoratog` tizmasida madaniy-xo`jalik markazi shakllangan (Gaurqal`a). Bizning fikrimizcha, mazkur tarixiy

davrda Amudaryo sohiliga tutashib ketgan balandlikda mikrovoha vujudga kelgan (Jampiqqal`a). Amirobod sug`orish inshooti adog`ida mikrovoha (Dumanqal`a).

Amudaryoning so`l sohillarini qamrab olgan urbanizatsiya o`ng sohil sarhadlarida kechgan urbanizatsiya jarayoni bilan bir xil darajada bo`lganligini kuzatish mumkin. Davdon va Daryoliq irmoqlari va ularning shaxobchalari faoliyati davom qilganligi bois, Sariqamishbo'yi havzasining janubi-g`arbiy sarhadlarida sun`iy sug`orma dehqonchilik tizimli mayda vohalarning shakllanish jarayoni kechgan. Davdonning shimoliy va janubiy tarmog`i o`rtasidagi Manqir balandligi tomon shaxobcha chiqarilib, uning etagida mikrovoha vujudga kelgan (Manqirqal`a). Charmanyob sug`orish inshootidan janubi-g`arb tomonga shaxobcha chiqarilib, uning etagida mikrovoha vujudga kelgan (Shoxsanam). Qal`aliqir-1 yaqinidan o`tgan sug`orish inshootining o`rta qismidan shimoliy tomonga Ko`nauvaz kanali chiqarilib, uning sohili atroflarini qamrab olgan mikrovoha shakllangan (Ko`nauvaz). Davdon irmog`i o`ng sohili qirg`og`iga ulanib ketgan balandlikda mikrovoha shakllangan (Daudanqal`a).

Xeykanik sug`orish inshootining adog`idagi madaniy-xo`jalik markazi faoliyati davom etadi (Ichanqal`a). Xeykanik sug`orish inshootidan shimoli-g`arbiy tomon shaxobcha chiqarilishi munosabati bilan mikrovoha vujudga kelgan (Tuproqqal`a;Xiva).

Yormish sug`orish inshooti o`rta qismidan g`arbiy tomondagi yer yuzasidan boshlangan balandlikda madaniy-xo`jalik markazi tashkil topgan (Katqal`a). Yormish kanali etagidagi tekislikda vujudga kelgan madaniy-xo`jalik markazi (Voyangan). Yormish kanalidan g`arbiy tomon chiqarilgan shaxobcha adog`idagi tekislikda mikrovoha (Tuproqqal`a;Shovot). Shu bilan birga, mazkur kanaldan Savkan nomida sug`orish inshooti o`rtasidagi g`arbiy tomon shaxobcha chiqarilishi munosabati bilan uning adog`ida madaniy-xo`jalik markazi tashkil topgan (Olmaotishgan-1). Xazorasp magistral kanalidan janubi-g`arbiy tomon Kandaranxos tarmoqi chiqarilgan (Qalajiq).

Miloddan avvalgi II-I asrlarga kelib, so`l sohildagi madaniy-xo`jalik markazlarida madaniy-iqtisodiy krizis ko`zga tashlanadi. Masalan, Davdon

irmog`ining shimoliy shahobchasi faoliyati butunlay to`xtaydi, ammo mazkur irmoqning o`rta qismidan chiqarilgan Charmanyob sug`orish inshootida suv oqimining ma`lum darajada davom etishi natijasida janubi-g`arbiy tomonga o`tkazilgan sug`orish inshooti etagidagi mikrovoha faoliyati qisman davom etgan. Xeykanik sug`orish inshooti faoliyati davom etganligi bois, avvalgi mavjud bo`lgan madaniy-xo`jalik markazi faoliyati qisman davom etgan. Darg`on madaniy-xo`jalik markazi Qushqal`a va uning tarkibini hosil qilgan mikrovoha va uning markazi Odoytepa faoliyatlari davom etgan.

Milodiy I-III asrlar mazkur tarixiy davrlarda Sariqamishbo'yi ilk antik davrda mavjud bo`lgan irrigatsion tarmoqlarning ba`zilari faoliyati davom etganligi munosabati bilan madaniy-xo`jalik markazlar va ularning silsilasini tashkil qilgan mikrovohalar faoliyati davom etganligi kuzatiladi. Ilk o`rta asrlarga kelganda (V-IX asrlar) aksariyat madaniy-xo`jalik markazlarda madaniy hayot o`z me`yoriga yetgan bo`lsa, suv ta`minoti mavjud bo`lgan dehqonchilik vohalarida madaniy hayot davom etgan. Xorazmda ilk o`rta asrlarda kechgan tarixiy jarayonni alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Shunday qilib, ushbu paragrafni shunday xulosa bilan yakunlash lozim. Amudaryo va Sirdaryo faoliyatlari natijasida hosil bo`lgan Xorazm vohasini insonlar tomonidan o`zlashtirilishi miloddan avvalgi IV asrlarni qamrab olgan. Turon zaminida yangi tamaddunni hosil qilganlar. Mazkur tamaddunni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi o`sha kezlardan boshlangan bo`lib, keying tarixiy davrda (qisqa davr natijasida va madfaniy krizisni boshidan kechirgan) uning taraqqiyoti davom etdi. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxirigacha voha aholisida mudoffa bilimiga ta`sir ko`rsatadigan omillar mavjud emas edi. Mahalliy aholi yarim yerto`la chaylalarda tinch sharoitda yashagan. Faqat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari davom etgan. Tuyamo`yin, Toshsaqa tabiiy-iqtisodiy regionlarining yer yuzasi
Sariqamishbo'yi pasttekisligining geologik tuzilishidan keskin farqlanadi. Sariqamish havzasi Qoraqum sahrosi o`rtasida joylashgan, uning sohiliga tutashgan Manqir, Ko`zaliqir, Qalaliqir balandliklari 40-50 m ni tashkil qiladi.

Toshsaqa, Tuyamo`yin joylashgan hududda bunday geologik xususiyatlar kuzatilmaydi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda 20 ga yaqin madaniy-xo`jaliklar vujudga kelgan. Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmidan Xorazmda turar-joylar qurilishida o`zgarishlar yuz beradi. Shaharcha va shahar tipidagi aholi markazlari qaror topadi, ular o`z navbatida madaniy-xo`jalik vohalarining ma`muriy-hududiy va etnik markazlariga aylanadilar.

Shunday qilib, ushbu paragrafni quyidagicha yakunlash mumkin.

Quyi Amudaryo havzasi Amudaryo va uning shaxobchalari suvdagi loy qatlamlarining yotqizilishi natijasida vujudga kelgan. Yer geologiyasining to`rtlamchi davri o`rtalridan boshlab, Tuyamo`yin qisig`idan Taxiatashgacha tekislik vujudga kelgan. Keyin esa Nukusdan Orol dengizi janubiy sohiligacha tekislik paydo bo`lib, 4 yosh hisoblanadi. Uning yer yuzasi rang-barang, mazkur geografik xususiy yer osti tektonik harakatlar natijalarida paydo bo`lgan. Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Amudaryo suvi ta `minoti yuqori darajada bo`lgan. Sariqamishbo`yi, O`zboy va Oqchadaryo havzasi sarhadlarida ko`p sonli suv havzalari vujudga kelib, tabiiy-iqtisodiy manbalarga boy bo`lgan xuddi o`sha kezlarda suv havzalari sohili etaklariga aholi kelib joylashganlar. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Sariqamish, Oqchadaryo havzalari va Tuyamo`yin zonasi atroflarida suv havzalari massivlari vujudga kelgan. Shunday suv havzalari Shimoliy Oqchadaryo havzasida ham paydo bo`ladi va aholining joylashishi zich emas. Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Yonboshqal`a tepaligi shimoliy, shimoli-g`arbiy va shimoli-sharqiy sarhadlar suv havzalari tabiiy-iqtisodiy manbalarga ega bo`lib, etnik makonga aylanadi va Amudaryo faoliyatida bog`liq bo`lgan massivlar tashkil topadi. Miloddan avvalgi III ming yilliklarga kelganda avvalgi suv havzalari faoliyati Amudaryo suvining doimo bir tarzda kelib turmaganligi sababli to`xtab, taqir yerga aylanib qoladi, urug` jamoalari esa, yangidan vujudga kelgan suv havzalari tomon ko`chadilar. Miloddan avvalgi III ming yilliklar mobaynida Quyi Amudaryo havzasi, Sariqamishbo’yi, O`zboy sarhadlarida suv havzalari sohili etaklari urug` jamoalari uchun iqtisodiy va etnik makon bo`lib xizmat qiladi. Bir-biriga zich massivlar ustunligi eneolit davri bilan

izohlanadi. Miloddan avvalgi II ming yillikka kelganda massivlar faoliyatida o`zgarish yuz beradi. Bu Amudaryoning suvga to`yinishi bilan bog`liq. Amudaryoning Davdon irmog`ining suv ta`minoti goh-gohda bo`linish munosabati bilan urug` jamoalari o`ng sohil Oqchadaryo havzasi tomon ko`chish yuz bergan. Aynan o`sha kezlarda Oqchadaryo havzasi, xususan janubiy Oqchadaryo sarhadlarida ko`p sonli suv havzalari hukmronligi bo`lgan. Bu esa, bir-biriga zich bo`lgan suv havzalarini vujudga keltirgan. Shu narsani ta`kidlash kerakki, janubiy Oqchadaryo suv havzalari goh tugab, ular taqirga aylangan, goh yangidan vujudga kelgan. Urug` jamoalari o`zanlar va yangidan vujudga kelgan ko`llar sohillariga ko`chib yurganlar-ki, bu holat miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxirigacha davom etgan. Demakki, miloddan avvalgi V ming yillikdan to II ming yilliklar oxirigacha Quyi Amudaryo havzasi, Sariqamishbo’yi, O`zboy atroflaridagi qumtepaliklar oralig`ida suv toshishi natijasida vujudga kelgan suv havzalarining hududiy chegarasi qumtepalik yon bag`rib o`lib, u ham doimiy emas. Shuning uchun ham ajdodlarimizning kundalik hayoti, xo`jalik yo`nalishlarini oshib borishiga imkon beradigan doimiy hududiy chegaralarga ega bo`lgan massivlar mavjud bo`lmagan. Massivlar o`z navbatida tabiiy-iqtisodiy manbalarga boy bo`lib, antropogen landshaft ta`sirida faoliyat olib borib, odamlarning kelib joylashishi uchun tayyor holatda bo`lgan. Quyi Amudaryoning neolit, eneolit va bronza davri tabiiy sharoiti, suv havzalar ustunligi Zarafshon vohasida mavjud bo`lgan bo`lsa, Kopettog` tog` oldi hududlarida vujudga kelgan massivlar inson manfaatlariga xizmat qilgan. Urug` jamoalari esa o`troqlashib, dehqonchilik va uy chorvachiligiga va loy me`morchilik bilimini faoliyatiga olib kirganlar. Darvoqe, tarixiy jarayon bir xil, lekin geografik holat, tabiiy sharoit har xil. Mazkur hududiy xususiyatlar moddiy madaniyatda o`z ma`nosini topgan.

Endi, neolit davri urug` jamoalari tomonidan qurilgan turar-joylarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari va shu asosda tadqiqotchilar tomonidan nashr qilingan ishlar mazmunini nazariy-qiyosiy tahlil qilish asosida tarixshunoslik fanini yoritishga harakat qilamiz.

## 1.2 Neolit davri manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar natijalari.

Ma`lumki, Sho`ro hokimiyati yillarida totalitar boshqaruv tizimi zo`ravonligi davrida S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari XX asrning 30-yillari o`rtalaridan 60-yillarigacha bo`lgan davrda neolit, eneolit davrlariga mansub aholi manzilgohlarida arxeologik ishlarni olib borib, noyob ashyolar olishga erishganlar. Shu tariqa O`zbekiston tarixining neolit davri tarixi Xorazmda o`rganilishi boshlanganligini qayd etish lozim. Kezi kelganda shuni ta`kidlash lozinmki, mahalliy qadimshunos mutaxasislar yo`qligi sababli markaz ilmiy muassasalari tomonidan tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiya faoliyat olib borganligi haqiqat. Lekin, mahalliy yoshlarni ekspeditsiya tarkibiga qabul qilish va shu asosda mahalliy kadrlar tayyorlashga ham e`tabor berilganligi ma`lum.

Ma`lumki, A.S. Kes olib borgan geologik tadqiqotlar natijalariga ko`ra, yer geologiyasining to`rtlamchi davr boshida O`zboy, Sariqamish havzasi, o`sha davrning o`rta va oxirgi davrida Quyi Amudaryo havzasi to`la shakllanib bo`lgan edi. Amudaryo suvi tarkibidagi loyqa qatlamlarining cho`kishi eng avvalo Sariqamish havzasini shakllantirgan. So`ngra Quyi Amudaryo havzasi vujudga kelganligi ma`lum. Ularning ter yuzasi tuzilishi jihatidan tubda farqlanishi seziladi. Sariqamish havzasini Qoraqum, Qalaliqir, Ko`zaliqir balandliklari, Sariqamish ko`li namoyon qiladi. Mazkur hududning vujudga kelishi, tarixiy davr va uning turli bosqichlarida faoliyat olib borishiga Amudaryoning Davdon va Daryoliq irmoqlari katta rol o`ynagan.

Arxeologik ashyolar Xorazm vohasining Oqchadaryo havzasi va Tuyamo`yin hududiga eramizdan avvalgi V-VI ming yilliklarga kelib joylashganligini isbotladi. Amudaryo o`ng sohilidagi neolit davri manzillarining arxeologik jihatidan o`rganilish tarixi quyidagi manzaraga ega bo`lgan.

Yonbosh-4 - Yonboshqal`adan 1,5 km janubi-g`arbda joylashgan. To`rtko`l tumani hududida 1939, 1940, 1945-yillarda S.P. Tolstov tomonidan tekshirilgan. Umumiy maydoni 320 m,aylana shaklda, markazda olovxona mavjud. Chayla yog`och-ustun karkas shaklida qurilgan. Sopol idishlar tuxumsimon shaklda, osti yassi, tashqi devorida turli xil naqshlar mavjud. Manzil V-IV ming yilliklar bilan belgilangan.

Yonbosh-5 – antik davr yodgorligi Yonboshqal`adan 1,7 km janubi-g`arbda joylashgan manzil, 1940, 1953, 1958 va 1965-yillarda arxeologik jihatdan o`rganilgan. Manzil umumiy hajmi 17x35 m. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar bilan belgilangan.

Yonbosh-11 – Yonboshqal`a tizimida joylashgan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar bilan belgilangan.

Yonbosh-12 - Yonboshqal`adan 1,9 km janubi-g`arbda joylashgan. 1940, 1945-yillarda arxeologik qazish ishlari olib borilgan. Umumiy hajmi 30x30 m. Manzil miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga oid.

Yonbosh-14 – Yonboshqal`a tizimida joylashgan, 1939,1940 va 1965-nyillarda o`rganilgan. Miloddan avvalgi III ming yilliklar bilan belgilangan.

Tolstov manzili - Yonboshqal`adan 3 km janubi-g`arbda joylashgan. A.V. Vinogradov tomonidan 1965-yildan boshlab o`rganiladi. To`g`ri burchakli uy xonasi o`rganilgan, umumiy hajmi 110-120 $m^2$. Manzil V-IV ming yilliklar bilan belgilangan.

Ding`ilja-6 – janubiy Amudaryo havzasida joylashgan. 1976-yilda arxeologik jihatdan tekshirilgan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga oid.

Kunyak-1, Mamur-1, Mamur-3, Mamur-4 miloddan avvalgi V-IV-III ming yilliklarga oid.

Qo`rg`oshinqal`a atrofida Qo`rg`oshin-B, Qo`rg`oshin-G, Qo`rg`oshin-D, Tajiqozon-1-14 manzillari o`rganilib, miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar bilan belgilangan.

1972-1973-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Tuyamo`yin suv ombori qurilishi munosabati bilan arxeologik kuzatish ishlarini olib borib, 50 ga yaqin neolit davri manzilgohlarini topdilar (Sulton Sanjar, Qo`shbuloq va boshqalar). Xorazm vohasida neolit davri odamlarining asosiy mashg`uloti baliqchilik va termachilik bo`lgan. Ichki tuzilishga ega bo`lgan yarim yerto`la chayla Tolstov manzili, Qavat-7 manzilgohida o`rganilgan[17]. Yonbosh-4 manzilining ichki tuzilish an`analari Ko`nak-1, Ko`ginak-22,195,198,

[17]Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации.-Москва: Наука, 1948. -с. 53-55.

Bolaeshim-9 kabi manzilgohlar ichki tuzilishida ham o`z ma`nosini topgan.[18] Tarhi yarim yerto`la ichki tuzilishi Kaltaminorliklar manzilgohlari ichki tuzilishini Tuyamo`yin tiziniga kirgan Kaparas vohasidagi Sulton Sanjar 1,2,3,4,5,37, Qo`shbuloq Qarriqizil kabi manzilgohlarida ham aks etganligi aniqlangan.[19] Shu bilan birga Bayram-Qazg`on-1 To`rtko`l tumani hududida joylashgan. Umumiy hajmi 20x20m, sopol buyumlar, tosh qurollar topilgan, neolit davri taraqqiyotida mavjud bo`lgan.

Qavat-5 – Aqchadaryo havzasining g`arbiy qismida joylashgan. 1954-yilda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilgan. Sopol idishlarda to`lqinsimon bezaklar mavjud. Mehnat qurollari, plastinka, qirg`ich, kamon o`qi madaniy qatlamdan topilgan. Manzil neolit davri ravnaqiga oid bo`lib, miloddan avvalgi IV ming yillik bilan belgilangan.

E.B.Bijanov shimoli-g`arbiy Ustyurt sarhadlarida mezolit va neolit davrlariga oid manzilgohlarda arxeologik izlanishlarni olib borib,qadimgi tosh va neolit davriga oid ashyolarni olishga muyassar bo`ldi. Demak, o`rta tosh davri odamlarining janubi-sharqiy Ustyurt hududida turmush tarzini olib borishlari uchun qulay geografik sharoit mavjud bo`lganligi kuzatiladi.

Miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda odamlarning maskanlari Xorazmning shimoli-g`arbiy hududlarida faoliyatlari davom etgan. Janubi-sharqiy Ustyurtdagi mezolit davri odamlari yangi tabiiy-iqtisodiy manbalarni izlab yurib, Yonboshqal`a tepaligining shimoli-sharqiy qumtepaliklari o`rtasida mavjud bo`lgan suv havzalari sohili tomonlariga kelib, ovchilik va termachilik ishlari bilan shug`ullanganlar. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga kelib, Ustyurt platosidagi ovchilar Tuyamo`yin hududidagi Kaparas vohasiga kelib, Sulton Sanjar,Qarriqizil botiqlari sohiliga kelib joylashib, o`zlarining xo`jalik an`analarini an`analarini davom ettirganlar. Oqchadaryo havzasida neolit davriga mansub bo`lgan Yonbosh-4, Qavat-7, Tolstov manzili, Yonbosh-6 maskanlari arxeologik jihatdan o`rganilishi natijasida ajdodlarimizning turmush-tarzini aks ettiradigan

[18] Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. Т. „Узбекистон'' .2012. 46-бет.
[19] Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности южного Хореэма.М.„Наука''.1991.стр.51-60.

jihatdan o`rganilishi natijasida ajdodlarimizning turmush-tarzini aks ettiradigan ashyolar olindi. Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma`lumki, neolit davrida Markaziy Osiyoning qadimgi dunyosi jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishida uch xil manzara mavjudligi ko`zga tashlanadi, ya`ni, Joytun, Kaltaminor, Hisor, Janubiy Turkmanistondagi o`troq aholi bo`lgan Joytunliklarda o`zlashtiruvchi xo`jalik yo`nalishi rivojlanyotgan bo`lsa, Xorazm vohasi (Kaltaminor) va Tojikistonning tog`li hududlarida istiqomat qilgan urug` jamoalari o`zlashtiruvchi xo`jalikni olib borganlar. Shu tariqa, Markaziy Osiyoning mintaqaviy rivojlanishi neolitdan boshlanib, uning yanada tezlashish jarayoni keyingi tarixiy davrda davom etganligi kuzatiladi. Issiq mintaqalarda ishlab chiqaruvchi xo`jalik, iqlim sharoiti noqulay bo`lgan mintaqalarda o`zlashtiruvchi xo`jalik yetakchi bo`lib, ularning asosini ovchilik, termachilik xo`jaligi tashkil etgan.Neolit tarixiy davridan III ming yillik o`rtalarigacha Oqchadaryo, Sariqamishbo`yi havzasi, Sariqamish ko`li, O`zboy suv bilan uzluksiz ta`minlanib turganligi bois, neolit, eneolit tarixiy davrlarida ovchilar, termachilar faoliyati mavjud bo`lgan.

Arxeolog A.V.Vinogradov Aqchadaryo havzasidagi 20 ga yaqin neolit davri manzilgohlarini o`rganib, tarix faniga Kaltaminor madaniyati nomini olib kirdi.[20] Daryo vodiysida ham neolit davri manzilgohlari o`rganildi, noyob ashyolar olindi. Bu hududda 80 dan ortiq neolit davri manzillari o`rganildi, ya`ni, Zambar 1,3, Yangiqishloq 12,35, Sariqsuv, Mingbuloq, Yangisuv, Go`rtepa, Damko`l, Madyor 1,2,3,4,5,6, Gosqum I-IV manzillari bo`lib, ularning madaniy qatlamlaridan qirg`ichlar, teshgichlar, o`roq-randalar, tosh cho`qmorlar, tosh pichoqlar. Taqinchoqlar va munchoqlar topilgan.[21]

Amudaryoning o`ng sohilidagi Sulton Uvays tog`i sharqiy etagida Yonboshqal`a atamasidagi tepalik atroflari cheksiz ko`chma qumlar bilan qoplangan. Aynan shu qumliklar miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda odamzotning iqtisodiy makoniga aylanib, keng hududni hosil qilgan. S.P.

[20] Виноградов А.В.Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М. „Наука''. 1981.
[21] Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. 118. М. 1968.

Tolstovning ma`lumotiga ko`ra, Yonbosh-4 manzili konussimon shakldа umumiy maydoni 24x16 m, ustunlar balandligi 8-10 m. Ustunlar novda va qamish bilan bekitilgan, novdalar ustunlarga mahkam bog`langan, qamishlar ustki qismi loy bilan shuvalgan. Markazda yonib turgan o`choq bo`lib, uning aylana hajmi 1 m. Kirishning o`ng tomonida ustunlar atrofida ko`p sonli o`choqlar joylashgan. Tadqiqotchi fikricha chaylada 100-120 kishi yashagan bo`lib, ularga „Donishmand ona'' rahbarlik qilgan. Juft oilalar istiqomat qilishgan. Neolit davri odamlarining xo`jalik yo`nalishini va Kaltaminor madaniyati nomini S.P.Tolstov ilmiy jamoatchilikka havola qilgan edi.[22] A.V.Vinogradov Xorazm neolit davrida kechgan jarayonni batafsil o`rgangan. Tadqiqotchi olib borgan arxeologik tadqiqotlar ilmiy fan sohasiga olib kirildi.[23] Monografiyada Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi neolit davriga mansub aholi manzilgohlaridan olingan ashyolar asosida ibtidoiy odamlarning moddiy va ma`naviy madaniyati yoritilgan.[24] A.V.Vinogradov Sariqamishbo'yi va O`zboy ilk Kaltaminorliklar manzilgohlarida arxeologik qazish ishlarini olib bordi. M.A.Itina esa Markazning maxsus buyrug`i asosida Tuyamo`yin suv ombori qurilishi munosabati bilan Kaparas vohasida neolit davri manzillarini o`rgandi.[25] Maqolada Sulton Sanjar, Qushbuloq, Qarriqizil hududlarida neolit davriga mansub manzillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yakuni izohlangan.

Shu tariqa, paragraf mazmunidan kelib chiqib, quyidagi xulosani qilish mumkin.

Quyi Amudaryo, Sariqamishbo`yi, O`zboy atroflarida vujudga kelgan suv havzalari miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda insoniyat tomonidan o`zlashtirildi. Suv havzalari, o`zanlar sohili atroflarida ibtidoiy odamlar turar joylarni bino qilishib, xo`jalik sohalarini olib borganlar. Sho`ro davrida Quyi Amudaryo havzasi va unga tutashib ketgan janubiy hududlar Xorazm

[22]Толстов С.П.Древний Хорезм. Москва.„Наука''.1948. Он же по следам древнехорезмийской цивилизации. М. 1948. Он же По древним делътам Окса и Яксарта. Москва. „Наука''.1960.
[23]Виноградов А.В.Неолитические памятники Хорезма // МХЭ, Вып 3. 1962. Ўша муаллиф. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М. „Наука''. 1981.
[24] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т. 1959. 148-бет.
[25]Итина М.А. Памятники неолита и бронзы // Древности южного Хорезма. М. „Наука''. 1991.

ekspeditsiyasi tomonidan o`rganildi, natijalari esa ilmiy jamoatchilikka yetkazildi. Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma`lumki, neolit davrida insoniyat O`zboy, Sariqamishbo`yi atroflari, Oqchadaryo havzasini o`zlashtirganlar. Shimoliy Xorazm (Orol dengizining janubiy hududi) ibtidoiy odamlar tomonidan o`zlashtirilmagan.

Endi, Sho`ro hokimiyati davrida arxeolog olimlar tomonidan neolit davri tarixi qanday darajada yoritilganligiga e`tibor qaratamiz.

XX asrning 30-yillari o`rtalarigacha Xorazm vohasi aholisining ibtidoiy madaniyati tarixiga oid bironta ish matbuotda e`on qilinmagan. XX asrning 30-yillari o`rtalarida Xorazm vohasida istiqomat qilgan aholining ibtidoiy madaniyatini o`rganish uchun markaz tomonidan S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tashkil qilingan. S.P.Tolstov A.Y. Yakubovskiy, M.Voevodskiylar XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillar boshlarida Xorazmda arxeologik qazish ishlarini Ko`hna Urganchda Zamaxsharda olib borishi natijalari Markaz ilmiy muassasalari diqqatini jalb qilgan albatta. Shu bilan birga, Xo`janepesning Markaz rahbarligiga bir vaqtlar Xorazm aholisi har kuni Amudaryo suvining qaytib ketishi natijasida vujudga kelgan qumlardan oltin olmoqda degan xabar va uni aniqlash uchun Pyotr I tomonidan yuborilgan ekspeditsiya hamda Rossiya Xiva olganda keyin, rus geologlari xonlik hududiga tabiiy boyliklarni tekshirish natijalari Xorazm ekspeditsiyasining tashkil topishiga olib kelgan albatta. Xorazm ekspediysiyasi oldin O`zbekistonning Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida respublika ilmiy markazlari tomonidan tashkil etilgan arxeologik guruhlar xorijda shu tipdagi ekspeditsiyalarni tashkil qilish tashabbusi tayyor bo`lgan.

Xorazm ekspeditsiyasi sho`ro jamiyatining barcha sohasini qamrab olgan aqidaviylashtirilgan „kommunistik mafkura'' va shaxsga sig`inish hamda siyosiy qatag`onlik kuchaygan bir davrda Xorazmda ish boshlagan. Ekspeditsiya xodimlari Zaungir Qoraqumidan to Orolbo`yi hududlarigacha bo`lgan keng hududda 1937-1940-yillarda dala amaliyotini olib borib, 400 dan ziyod ajdodlarimiz tomonidan qoldirgan tarixiy obidalarni ro`yhatga oldi. 1938-1940-yillarda ekspeditsiya

xodimlari arxeologik qazish ishlarini Amudaryoning Oqchadaryo irmog`i suvi sathi ko`tarilishi natijasida qumtepaliklar oralig`idagi hosil bo`lgan suv havzalari sohili etagiga tutashgan qirlar yonbag`riga aholi tomonidan qurilgan makonlarida olib borib, neolit davriga oid moddiy ashyolarni olishga erishdilar.

Xorazm ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov tomonidan ajdodlarimizning neolit davrida olib borgan xo`jalik yo`nalishlari tarixi ikki asarida qayd qilingan. Ikki asar mazmunida Oqchadaryo havzasining aholi tomonidan o`zlashtirilishi, xo`jalik yo`nalishi, moddiy madaniyati, qo`shni hududlar bilan madaniy aloqalari, moddiy ashyolarning yaqin va o`rta sharq, Hindiston hududlarida turmush tarzini olib borganneolit urug` jamoalari madaniyatiga o`xshash tomonlari yoritilgan. Ikki monografiyada ham Yonbosh-4 yarim yeto`la kulba, konus shaklda, katta o`qi 24m, kichkina o`qi 17 m, markaz ustunligi 8-10 m. U yog`och ustunlar yordamida qurilgan uski qismi novdalar bilan berkitilib, ular bir-biri bilan bog`langan, qamish va loy ishlatilgan. Bunday qurilish uslublari Janubiy Amerika, Afrika, Okeaniya hududlarida istiqomat qilgan xalqlar turar-joylar qurilishiga o`xshab ketgan. Ustunlar aylana shaklga ega bo`lgan, aylanasi 15-20 sm, 50-60 sm chuqurlikka o`rnatilgan. Manzil o`rtasida olov yonib turadigan o`choq joylashib, urug` jamoalarining ruhlanish joyi bo`lgan. Tadqiqotchi tomonidan tarix sahnasiga olib kirilgan miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda ijod qilgan urug` jamoalari xo`jaligi ,,Kaltaminor madaniyati'' ning tashabbuskori bo`ldi. Mazkur madaniyatga oid maskanlar g`arbiy Qozog`iston, Sirdaryoning pastki oqimi, Orolbo`yi shimoli-sharqida, Amudaryo o`rta va pastki qismida, O`zboy, Sariqamishda, markaziy va shimoliy Qizilqumda, Qoraqumning ancha qismiga tarqalganligini tadqiqotchi qayd qiladi. Bizning fikrimizcha, Kaltaminorliklar dastlab, Yonboshqal`a tepaligi atroflarida yashaganlar, keyin ular yuqorida qayd qilingan bepoyon hududlarni o`zlashtirganlar. Yonbosh-4 chaylasida tadqiqotchi fikricha 120-125 ta urug` jamoasi a`zolari istiqomat qilgan. Mehnat qurollari tarkibi, turar-joylar tuzilishi, olingan sopol idish-tovoqlar, hayvonot va o`simlik olami, zeb-ziynat buyumlari, xo`jalik yo`nalishi bo`lgan ovchilik va termachilik sohasining ustunlik qilishiga oid fikr-mulohazalari ikki monografiyasida o`z aksini

topgan.[26] Afsuski, tadqiqotchining ikki tadqiqotida suv havzalarining bir-biriga zich joylashgan madaniy massivlarini hosil qilishga oid fikr mulohazalari mavjud emas. Holbuki, Oqchadaryo havzasida suv havzalari ko`p bo`lib, ular bir-biriga ulanib ketganligi haqiqat. Mana shu chegarasi qumtepaliklar bilan aniq bo`lgan ko`llarni nazarga olib, Oqchadaryo havzasini „Buyuk ko`llar'' deb nomlash lozimdir. Shu bilan birga, suv havzalari vaqt o`tishi bilan flora va faunaga ega bo`lgan, ya`ni antropogen landshaft ta`sirida iqtisodiy makonga aylanganligi ma`lum. XX asrning 60-yillar boshlarida e`lon qilingan tadqiqotchi monografiyasida Kaltaminor madaniyatining so`nggi bosqichi, eneolit davri aholisining Sariqamishbo`yi, O`zboy atroflarini o`zlashtirishi, bronza davrida xo`jalik yo`nalishlarini olib borgan urug` jamoalari tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olgan. Monografiyada shimoli-sharqiy tomondan ko`chib kelgan aholi o`rnashib, tub aholi bilan omuxtalashihsi natijasida vujudga kelgan yangi avlodning xo`jaligini „Tozabog`yob madaniyati'' atamasini tarixiy adabiyotlarga olib kirdi. Shu bilan birga, S.P.Tolstov Suyorgan urug` jamoalarini janubdan kelib qolgan, bu jarayon miloddan avvalgi III-II ming yilliklar chegarasida sodir bo`lgan deydi.[27]
Xorazm tarixini jahon madaniyati sahifasiga olib chiqqan olimning Suyorganliklar to`g`risidagi fikri tadqiqotchilar o`rtasida munozara vujudga kelishiga olib keldi. Tadqiqotchi birinchi navbatda „Suyorgan'' atamasi etimologiyasiga e`tabor bergan emas. Ma`lumki, Amudaryo yuqori oqimidan kelgan suv darajasiga bog`liq holda suvga to`yingan. Agar suv manbasi Amudaryoni to`ydirsa, unda uning sathi ko`tariladi. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Amudaryoning Oqchadaryo havzasi, Tuyamo`yin tizimiga kirgan Kaparas vohasi suv bilan ta`minlanishi yuqori darajada bo`lgan. Yuqorida qayd qilingan sanalarda Amudaryo suv sathi ko`tarilib, o`z chegarasidan toshib, qumtepaliklarning oralig`idagi yo`laklarga shiddat bilan yorib kirganligi bois, „Suyorgan'' toponomikasi paydo bo`lgan va shu ma`noda etnik nom ham vujudga kelgan. Ta`kidlash kerakki, S.P.Tolstov

[26]Толстов С.П.Древний Хорезм.М.„Наука''.1948. Он же по следам древнехорезмийской цивилизатции. М.Л.1948
[27]Толстов С.П.По древним делътам Окса и Яксарта.М.„Наука''.1962.стр-61.

Xorazmning neolit davri tarixiga oid ma`lumotlarni ilk bor ilmiy jamoatchilik e`tiboriga havola qildi va neolit tarixshunoslik faniga asos soldi. Ekspeditsiya a`zolari tomonidan nashr qilingan Quyi Amudaryo, Sariqamishbo`yi, O`zboy sarhadlarining geologik tuzilishi, suv havzalarining vujudga kelishi, antropogen landshaft ta`siri, unumdor va sernam hududlarning aholi tomonidan o`zlashtirilish masalalari monografiyada batafsil yoritilgan.[28] O`zbek arxeolog olimi Y.G`.G`ulomov S.P.Tolstovning Suyorganlik masalasidagi fikriga qo`shilmasdan, ularni Kaltaminorliklar bilan bog`lab, tub aholi avlodlari degan xulosaga kelgan.[29] Xorazming neolit davrida turmush tarzini olib borgan urug` jamoalari tarixini chuqur o`rgangan Xorazm ekspeditsiyasi xodimi, S.P.Tolstovning shogirdi A.V.Vinogradov Qavat-7 manzilidan olingan moddiy ashyolarni Jonbos-6, Qamishli-1,2, Bozor-1,2,3,4 makonlaridan olishgan ashyolarga yaqinligini nazarga olib, Suyorganliklar bilan bog`laydi.[30] O`rta Osiyoning qadimgi dunyosi tadqiqotchisi V.M.Masson Y.G`.G`ulomov, A.V.Vinogradov fikrlariga qo`shiladi.[31] Tadqiqotchilar o`rtasida S.P.Tolstov tomonidan olg`a surilgan „Tozabog`yob madaniyati'' to`g`risidagi fikr munozaraga olib kelmaydi.Tadqiqotchi Suyorganliklar va Tozabog`yobliklarning chatishib ketishi xulosasi ilmiy jamoatchilik tomonidan qo`llab quvvatlanadi. Ikki xo`jalik sohiblari qudachilik munosabatlarini olib borib, yangi tug`ilgan avlod eski joylarni tashlab, Amirobod kanali sohilidagi hududda o`rnashib, Oqchadaryo irmog`idan sug`orish inshootini chiqarib, Yakkaporson-2 massivini qurib, motiga dehqonchiligini o`z faoliyatlariga olib kirganlar. Xorazmning bronza davri tarixi M.A.Itina tomonidan keng miqyosda o`rganildi. Bronza aholisining tarixiga oid ma`lumotlar malakaviy ishning keronza aholisining tarixiga oid ma`lumotlar malakaviy ishning keying bobida batafsil yoritiladi. Xorazmning neolit davriga oid tarixiy ma`lumotlar rus va mahalliy tadqiqotchilar asarlarida yoritilish darajasiga e`tiborni qaratamiz. Rus olimlaridan S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov va ekspeditsiya a`zolari hamkorligida

---

[28] Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. М. „Наука''.1960.
[29] Ғуломов Я.Ғ. История орошения Хорезма. Т. 1957. стр. 51-54.
[30] Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. М. „ Наука''. 1962.
[31] Массон В.М. Средняя Азиа и Древный Восток. М. 1964. стр. 184-185.

nashr qilingan monografiyada neolit davri tarixi yoritilganini qayd qilgan edik. Endi, mahalliy arxeolog olimlarning tadqiqotlari va oliy o`quv yurti muassasalari uchun nashr qilingan o`quv qo`llanmalarda neolit davri tarixi qanday yoritilganligini o`rganish maqsadga muvofiq. Akademik Y.G`.G`ulomovning Xorazmning sug`orilish tarixiga bag`ishlangan monografiyasida „Qashshoqlar ovqati'' deb nom olgan bo`limida Yonbosh-4 manzili, shakli, joylashish xususiyatlari, urug` jamoasi turmush tarzi, moddiy va ma`naviy madaniyati, Kaltaminor madaniyatiga oid fikr-mulohazalari S.P.Tolstov xulosalariga qo`shilgani sezilib turibdi. Tadqiqotchi, Amudaryo tarixini keng tarzda yoritgan va shu asosda vujudga kelgan suv havzalari, odamlarning joylashish masalalari qayd qilingan[32]. Rus va o`zbek tarixchi olimlari bilan hamkorlikda nashr qilingan oliy o`quv yurtlari uchun o`quv qo`llanmalarning ibtidoiy jamiyat bo`limida Xorazmning neolit davri tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olgan. Bunda S.P.Tolstovning Yonbosh-4 maskani tarixi yoritilgan[33]. Keyingi yillarda tarixchi olimlar hamkorligida tayyorlangan O`zbekiston tarixi o`quv qo`llanmasida neolit,eneolit davrlari tarixi o`z aksini topgan. Xorazm ekspeditsiyasi xodimi, etnograf olim I.Jabborov o`z risolasida Yonbosh-4 maskani madaniy qatlamidan olingan ashyolar, hayvon suyaklari, qush, toshbaqa suyaklari va tuxum po`choqlari hamda ovchilik,termachilik sohalarining jamiyatda ustunligi, qo`shni hududlardagi urug` jamoalari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari keng tarzda bayon qilingan[34]. Markaz va O`rta Osiyo olimlari hamkorligida O`rta Osiyoning neolit davri tarixiga shu to`plam bo`limida Xorazmdagi Kaltaminor madaniyati tarixiga doir ma`lumotlar keltirilgan[35]. Tadqiqotchilar Kaltaminorliklar tomonidan Qizilqumning o`zlashtirilishi masalasini Lyavlyakan manzilidan olingan ashyolardan kelib chiqib, fikr-mulohazalarini keng ilmiy jamoatchilik e`tiboriga havola qilganlar[36]. E.Bijanov, A.V.Vinogradov maqolasida Ustyurt platosida neolit

[32] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.-Т: Фан, 1959.
[33] История народов Уэбекистан.-Т.: Фан. 1955.
[34] Жабборов И. Кухна харобалар сири. Т. Фан. 1966.
[35] Средняя Азиа в эпоху камня и бронзы. М. „Наука''. 1966.
[36] Виноградов А.В. Мамедов Е.D. Первобытный Лявлякан: Этапы древнейшего заселения и освоения внутренных Кизилкумов // МХЭ, Вып.10, 1975 стр. 26-27.

davri odamlarining yodgorliklari to`g`risida ma`lumotlar beradi.[37] Geolog olim A.S.Kes O`rta Osiyoning insonlar tomonidan o`zlashtirish ishiga bo`lgan tabiiy omillarga e`tiborni qaratgan edi. Bunda tabiiy omillarning vujudga kelishi, xususiyatlari, insonlarning o`zlashtirishining bosqichma-bosqichini keng tarzda yoritilishi diqqatga sazovor.[38] E.D.Mamledov O`rta Osiyo cho`l zonalarida aholining joylashishini geografiya fano asosida tahlil qilgan. Maqolada sug`orilish ta`minoti murakkab bo`lgan ijtimoiy zonalarning insonlar uchun qanday geografik omillarga e`tibor bergan.[39] E.D.Mamledov, S.G.Batulin O`rta Osiyo cho`l zonalarining sug`orilishi insoniyat tomonidan o`zlashtirilishi masalalari yoritilgan.[40] 70-yillar oxirida E.Bijanov Ustyurt platosida olib borga arxeologik izlanishlar natijalariga asoslangan maqolasida janubi-sharqiy Ustyurtda turmush tarzini olib borgan neolit urug` jamoalari tarixiga oid ma`lumotlarni qayd qilgan.[41] Mualliflar tomonidan tayyorlangan SSSR tarixi ocherki kitobining ibtidoiy jamoa tuzumi davriga ajratilgan bo`limida Xorazm neolitiga oid ma`lumotlar joy olgan.[42] A.Asqarov O`zbekistonda arxeologiya fani yutuqlarini yoritish chog`ida Xorazm neoliti tarixiga e`tibor bergan edi.[43] Tadqiqotchi M.P.Gryaznov sharqiy Orolbo`yi urug` jamoalari xo`jalik tarixini yoritgan. Bunda suv havzalari, botqoqliklar aholining chorvachilik xo`jaligiga mavjud bo`lgan imkoniyati to`g`risida fikr-mulohazalarini bildirgan.[44]

Samarqandlik arxeolog olim M.Jo`raqulov Sazag`an makonidan olingan ashyolar

---

[37] Бижанов Е. Виноградов А.В. Неолитические памятники Каракалпакского Устюрта/Вест КК Фан УзССР, №2,1965,стр.46-57.

[38]Кес.А.С. Природние факторы, обусловливаюшие расселения древного человека в пустинях Средней Азии//КСИЭ,Вып 30.1958,стр.5-17.

[39]Мамедов Е.D. Опыт географическом анализа древного расселения человек в бессточных районах пустып/история,археология и етнография Средный Азии//М.1968.стр.9-16.

[40]Мамедов Е.D. Батулин С.Г. Палеогидрогеологическая обстановка и древнее расселение человека в пустынях Средней Азии//Палеоекология древного человека.М.1977.стр.222-230.

[41] Бижанов Е. Неолитические памятники юго-восточного Устюрта/Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта.Ташкент.1978.стр.18-78.

[42]Очерки истории СССР/Первобытно-общынной истории и древнейщие государства /М. СССР.1956.стр.244-245.

[43]Аскаров А. Развитие археологической науки в Узбекистане/Обшественные науки в Узбекистане/Н-11-12,1972.стр.97-109.

[44] Грязнов М.П. Восточное Приаралье//Средная Азиа в эпоху камня и бронзы.Л-9,1966.стр.234-235.

asosida Markaziy Zarafshon vohasini yoritish jarayonida Kaltaminorliklarning ta`siri masalasi yoritilgan.[45] Shu bilan birga, tadqiqotchi O`rta Osiyo ibtidoiy arxeologiyasi tarixini o`rganish vaqtida Xorazm neoliti tarixiga oid materiallar jalb qilinib, Kaltaminorliklar moddiy ashyolarining keng hududlarga tarqalganligi to`g`risida o`z xulosasini qayd qilgan.[46] G.F.Korobkova tadqiqotlarida O`rta Osiyoning mezolit va neolit urug` jamoalarining mehnat qurollari klassifikatsiyasi va mahalliy variantlari o`z aksini topgan.[47] A.Kabirov, A.Sagdullayevlarning o`quv qo`llanmasida Xorazm neoliti tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olgan.[48] Milliy istiqlol mafkurasi tamoyillariga asoslangan holda vatan tarixini yoritish kun tartibiga olib chiqildi. Buning uchun tarixchi va arxeolig olimlar hamkorligida vatanimiz tarixining yangi loyihasi ishlab chiqildi. Loyihada O`zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kechgan jarayonlarni arxeologik, etnografik va antropologik ashyolarni tahlil qilish asosida yangicha yondashuv va qarashlar orqali ishlab chiqish masalasi qo`yildi.[49] Mustaqillikning dastlabki yilida arxeolog Q.Sobirov Xorazmda neolit davrida kechgan iqtisodiy va etnik munosabatlar tarixi yoritilgan risolani nashr qildirdi. Risolada Oqchadaryo havzasida turmush tarzini olib borgan ona rahbarligida urug` jamoalarining madaniyati yoritilgan.[50]

Akademik A.Asqarov muharrirligida oliy o`quv yurtlari uchun nashr qilingan o`quv qo`llanmada O`zbekistonning neolit davri tarixini yoritishda Xorazm materiallari jalb qilingan. Bunda Oqchadaryo havzasidan Yonbosh-4,6, Qavat-7, Tolstov manzillari to`g`risida ma`lumotlar qayd qilingan.[51] Kezi kelganda ta`kidlash kerakki, tadqiqotchilar Xorazmning neolit davriga oid bo`lgan monografiya, to`plam, risola, maqolalarni qamrab olgan ma`lumotlar faqat nazariy-qiyosiy tahlil qildilar xolos. Faqat arxeolog olimlar tomonidan Zarafshon vohasi

---

[45] Журакулов М. Сазаганда янги тош даври кишилари макони/Узбекистонда ижтимоий фанлар.№8. Ташкент.1972.

[46] Журакулов М. Урта Осиё ибтидоий археологияси.Т.1984.

[47] Коробкова Г.Ф. Орудия труда в хозяйстве неолитических племен Средней Азии/МИА,158.Л,1959. Она же культуры локалные варианты мезолита и неолита Средный Азии(ИА,№3,М.1975).

[48] Кабиров А. Сагдуллаев А.С. Урта Осиё археологияси.Ташкент.„Укитувчи''.1990.

[49] Узбекистон тарихининг янги концепцияси.Лойиха.1991.

[50] Собиров К. Ибтидоий кулбадан шахарлар сари.Т.„Узбекистон'',1992.

[51] Узбекистон халклари тарихи /масъул мухаррир А.Аскаров.Т.„Укитувчи'',1992.

markaziy qismi Samarqand viloyati hududida neolit urug` jamoalari manzillari arxeologik jihatidan o`rganilgan. Boshqa viloyatlarda neolit, bronza davrlariga oid manzilgohlar o`rganilmasdan, faqat antik va ilk o`rta asr yodgorliklarini o`rganishga e`tibor berganlar xolos. Masalan, Samarqand viloyati hududida Samarqand Davlat Universiteti olimlari tomonidan neolit davriga Sazag`an, Tepaqul manzilgohlarida qazish ishlarini olib borganlar.[52] Samarqand Davlat Universiteti tadqiqotchilari tomonidan tayyorlanib nashr qilingan monografiyada Zarafshon vohasida neolit davri urug` jamoalari manzilgohlari to`g`risida ma`lumotlar, moddiy va ma`naviy madaniyatiga oid ma`lumotlar o`rin olishi jarayonida Xorazm vohasi ovchilari tarixiga e`tibor berilgan.[53] A.Asqarovning respulika xalq ta`lim vazirligining umumta`lim maktabining 5-bosqich o`quvchilari uchun mo`ljallangan o`quv darsligida quyi Amudaryo havzasi neolit davri urug` jamoalari tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olgan.[54] Tadqiqotchilar Q.Sobirov, S.Ro`zimovlar Xorazm va Zarafshon vohalari urug` jamolari o`rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixini Yonbosh-4 va Darvozaqir manzilgohlari misolida yoritganlar.[55] Tadqiqotchi Q.Sobirov O`rta Osiyoning mudofaa inshootlari tarixini o`rganishi jarayonida neolit, bronza davri jamiyatlarining rivojlanish jarayonida Xorazmning o`rni qayd etiladi. Risolada Xorazmda neolit davrida loy me`morchiligi bilimi mavjud emasligi, turar-joylar yerto`la ekanligini qayd qilgan.[56] T.Abdullayev tomonidan Xorazmning neolit davri yodgorliklarining o`rganilish darajasiga e`tiborni qaratish vaqtida miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda turmush tarzini olib borgan urug` jamoalari tarixi qisqacha izohlangan.[57] Tadqiqotchi A.Sagdullayevning o`quv qo`llanmasida O`rta Osiyoda neolit davri

[52]Холматов Н. Ибтидоий жамоалар турар-жойлари тугрисида баъзи мулохазалар. Самарканд.2003. Уша муаллиф Тепакул неолит макони тадкикотлари сахифасидан// Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар.2003. //№3,Т.2003.

[53] Жўрақулов М, Аванесова Н.А, Амирқулов Б.А. Зарафшон вохасининг ибтидоий маданияти. - С.: 1994.

[54] Аскаров А. Узбекистон тарихи.Т.„Укитувчи'',1997.

[55]Собиров Қ, Рўзимов С. Зарафшон ва Хоразм вохаларининг маданий-хўжалик алоқалари тарихидан. Мустақиллик йилларида ватанимиз тарихини янгича ўрганишнинг долзарб муаммолари. Қисм-1, С.: 2002; 41-42-бетлар.

[56] Собиров К. Кадимги Урта Осиё мудофаа иншоотлари тарихидан.Т.2003.4-5-бетлар.

[57]Абдуллаев Т. Хоразм неолит даври ёдгорликлари. Профессор-укитувчи ва талабаларнинг илмий анжуман материаллари. Т. 2003. 3-5-бетлар.

urug` jamoalari xo`jaligini yoritishda Xorazm neolit davri tarixiga oid ma`lumotlar nazariy manba bo`lgan.[58] Q.Sobirov, B.Bobojonovlar maqolasida Quyi Amudaryo havzasida neolit davrida geografik chegarasi doimiy bo`lmagan massivlar haqida ma`lumotlar keltirilgan.[59] A.Asqarov tomonidan ilmiy jamoatchilikka e`lon qilingan o`quv qo`llanmada Xorazmning Kaltaminor madaniyatiga oid ma`lumotlar qayd qilinadiki, unda ularning turmush tarzi ovchilik va termachilik ekanligi tarzida xulosasi mavjud.[60] Q.Sobirov, O`.Abdullayevlar Xorazmda etnomadaniy munosabatlar tarixini yoritishda neolit davrida etnik jarayonlarga e`tibor berishgan.[61] Q.Sobirov, D.Atamuratovalar maqolasida Xorazmda neolit davrida urug` jamoalari tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olgan. Bunda Amudaryo va Sirdaryolar faoliyatlari asosida Amudaryo, Sariqamish,O`zboy hududlari vujudga kelishi va insonlar tomonidan o`zlashtirilsh tarixi izohlangan.[62] „O`zbekiston hududida kechgan etnomadaniy munosabatlar va unig davlatchilik shakllanishidagi o`rni'' respublika ilmiy anjumani materiallarida B.Yaqubov maqolasida Quyi Amudaryo havzasida etnomadaniy jarayonlarni tahlil qilishda neolit davrida kechgan etnogenez va etnik tarixi yoritilgan.[63] N.A.Egamberdiyeva tomonidan tayyorlangan uslubiy qo`llanmada Kaltaminor madaniyati tarixiga oid ma`lumotlar keng o`rin olgan.[64] I.Jabborovning ilmiy ommabop kitobida Amudaryo tarixi Kaltaminor madaniyati tarixiga oid tarixiy ma`lumotlar kuzatiladi. Shu tariqa yuqorida qayd qilingan ma`lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkin.

- Sho`ro hokimiyati yillarida neolit davrini yritadigan ashyolar olindi va shu asosda ko`p sonli tarixiy adabiyotlar nashr qilindi. Albatta, chop qilingan ilmiy nashrlar

---

[58] Сагдуллаев А. Кадимги Урта Осиё тарихи (Укув кулланма).Т.„Университет''.2004.18-бет.

[59] Собиров К. Бобожонов Б.Хоразм вохасида антропоген ландшафт ва кадимги дехкончилик вохаларининг вужудга келишига доир баъзи масалалар.//История и материалская культура Каракалпакстана. Нукус. 2006. стр.38-40.

[60] Асқаров А. Ўзбек халқининг етногенези ва этник тарихи. - Т.„Университет''.2007. 98-бет.

[61] Собиров К. Абдуллаев У. Этномаданий муносабатлар: шаклланиш ва ривожланиш боскичлари//Жамият ва бошкарув.Т.Академия. №4,2007.61-бет.

[62] Собиров К, Атамуратова Д. Марказий Осиё кадимги дунёси минтакавий ривожланишида Хоразм вохасининг тутган урни.// УзМУ хабарлари №3,2011.213-214-бетлар.

[63] Якубов Б. Куйи Амударё хавзасида этномаданий жараёнлар ва тарихий тараккиёт (милоддан аввалги V-I минг йилликлар)//„Узбекистон худудида кечган этномаданий муносабатлар ва унинг давлвтчилик шаклланишидаги урни'' республика илмий анжумани материллари.Хива.2012,45-46-бетлар.

[64] Эгамбердиева Н.Археология.Т.2011.

„kommunistik mafkura’’ girdobida qolgan jamiyat ta`sirida qolganini eslash lozim. Tadqiqotchilar asarlaridan ma`lumotlar inkor qilinmaydi, ular o`z navbatida nazariy-qiyosiy tahlil qilinadi, yangi g`oyalar bilan yanada boyitiladi. Mustaqillik yillarida tadqiqotchilar asosiy e`tiborni antik davrni o`rganishga qaratdilar. Faqat Samarqand viloyatida neolit davri manzilgohlarida qazish ishlari olib borilmoqda.

Endi, Quyi Amudaryo havzasida bronza davri manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini qarab chiqamiz. Bronza davrida kechgan jarayonlar mazmun va mohiyati jihatidan avvalgi davrlardan keskin farqlanadi. Bronza jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi sifatida insoniyat taqdirida qanchalik ahamiyat kasb etishini tahlil qilish juda muhimdir.

## II BOB Xorazm bronza davrida .

### 2.1 Bronza davri madaniy-xo`jalik massivlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi.

Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma`lumki, bronza davriga oid ilk ma`lumotlar arxeologik manbalar XX asrning 30-yillar o`rtalaridan va 50-yillardan boshlab olingan xora zmning bronza davriga oid manzilgohlarini S.P.Tolstov, M.A.Itina tomonidan olib borilgan. Tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, Oqchadaryo havzasida Qamishli makonida qazish ishlari olib boriladi, yarim yerto`la, olingan idish-tovoqlar, tagi yassi mehnat qurollari tosh va misdan qilingan. Suyorgan madaniyati mazkur manzilgohdan boshlangan.[65] Yarim yerto`la, markazida otashgoh, u ustunlar yordamida tiklangan. Shuningdek, Yonbosh-6, Bozor 1,2,3,4, Tag`on-2, Anqo-2, Qoundi 1,3,4 manzilgohlarida qazish ishlari olib borildi.[66]

M.A.Itina janubiy Oqchadaryo havzasidagi Anqo 1,5, Teshik 1,2 Qavat 3,4,6, Ko`kcha 1,2,3,5,6,7,8,10,18,20,21,22,15,15A,16,16A,19, Qoundi-14, Yonbosh 4A,5,8,9,10,11,15,16,1721,22,26,24,30,33,33A,33B,34,35, Ding`ilja 8, Qum1,3, Qo`rg`oshi B, Qurolli 1 manzilgohlarida qazish ishlarni olib borib, sopol idish-tovoqlar, kamon o`qlari olishga erishgan.[67] Xorazmning bronza davriga oid noyob ashyolari Ko`kcha-3 qabridan olingan. Yodgorlik 1954-yilda ro`yxatga olingan. U 6-7 km Ko`kcha balandligidan janubi-g`arbiy tomonda tekislikka bino qilingan. Bu yerda 100 taga yaqin qabrlar ro`yxatga olindi. 1954-1955-yillarda 100 ta qabrdan 74 tasi ochib o`rganildi. Qabrlar to`g`ri burchakli, hajmi turlicha: 2,2-2,5x1,8-2 m. Yakka jasadlar 1-1,5x1,7-1,9 hajmda qabrlar ham o`rganilgan. Shu bilan birga hajmi kichik qabrlar ham ochib o`rganildi. Jasadlar 10-40 sm chuqurlikda joylashgan. Yoshi katta va bolalar suyaklari olingan.

Qabrlar tuzilishi va jasadlarning yotqizilishi:

1. To`g`ri burchaklari qabrlar. Uning tuzilishi sharq-g`arbiy tomon cho`zilgan.
2. Jasadning boshi g`arb tomonga qaratib qo`yilgan.
3. Jasadlar g`ujanak holda yotqizilgan.

---

[65] Толстов С.П. Итина М.А Проблема Суярганский культуры/СА,1,1960.
[66] Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.М.1962,стр.63-65.
[67] Итина М.А Новые данные Тазабагябской культуры,/МХЭ,Вып-1.М.1959.

4. Jasadlar boshi atrofida idish-tovoqlar qo`yilgan.

Qabrlardan 93 ta idish-tovoq siniqlari ba`zan butunlari olingan. 23 ta kichik xumcha topilgan. Qabrdan 20 ta bilakuzuk, 19 ta bo`yinga osadigan zeb-ziynat ashyolari olingan. Bilakuzuklar aylana shaklda[68]. Shimoliy Oqchadaryo suv havzalari sohili etaklariga ulangan hududlarda Baroqtosh 1b,8,9,10,13,14,18,19,20,21,22,29, Boljoq 2, Bo`zgul 1,2,3 manzilgohlari ochib o`rganildi[69]. Xorazmning so`nggi bronza davri manzilgohlari 1940-yilda Amirobod kanali atroflaridan ro`yxatga olingan. Amudaryoning qadimgi o`zanlari bo`ylab 10 dan ortiq manzilgohlar ochib o`rganilgan.

Xorazm ibtidoiy madaniyatining so`ngisi Amirobod madaniyatir. Bu madaniyatga oid manzilgohlar ilk bor 1940-yilda Qoraqalpog`istonning janubidagi Amirobod kanali bo`ylaridan topilgan edi.[70] Amirobod madaniyati asosan o`ng sohil Xorazm Aqchadaryo havzasidan qayd qilingan. O`tgan XX asr mobaynida arxeologlar Amudaryoning qadimgi o`zanlari bo`yida Amirobod madaniyatiga oid 10 dan ortiq manzilgohlarni ochib o`rgandilar. Neolit va bronza davri manzilgohlari yaqinida, shuningdek, deltaning ichkari qismida qayd qilingan Dingilja 1,2,3,4,5,7,9,10, Qoundi 1,7, Ko`kcha 1, Qavat 2, Yakka-Porson 2,4,5,6,7,8,14, Uy 1, Bozor 1,8,9,10,11, Jonbos 7 makonlari shu davrga oid.

Amirobod madaniyatining eng ko`zga ko`ringan yodgorligi Yakka-Porson 2 dir. Oldingi davr manzilgohlariga qaraganda Yakka-Porson Quyi Amudayo aholisi xo`jalik turmush tarzi va ishlab chiqarish munosabatlarida birmuncha yuqori taraqqiyot bosqichiga ko`tarilganliklarini ko`rsatadi. Yakka-Porson 2 shunchaki manzilgoh emas, balki 20 dan ortiq xonadonlardan iborat yirik aholi punkti bo`lib, har bir xonadonning maydoni 90-110 $m^2$ ni tashkil qiladi[71]. Vaholanki, bunday manzara oldingi davr yodgorliklarida kuzatilmagan edi.

---

[68]Итина М.А. Раскопки могильника Тазабагябской културы/Кокча-3/МХЭ,Вып-5, -1961, с. 3-96. Могильник бронзового века Кокча-3/МХЭ,Вып-5, -М. 1961.

[69]Низовья Амудари, Сарыкамыш, Узбой, М.:Наука, 1960, стр. 115-131. Итина М.А. История степных племен южного Приаралья./ТХАЭЭ,ТХ, -М, 1977.

[70] Толстов С.П. По древным дельтам, 1962, стр. 68-74.

[71] Виноградов А.В. Тысячелетия погребенные пустыны,-М. 1966. стр. 46.

Amirobod madaniyati miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Quyi Amudaryo havzasida so`nggi Suvyorgan madaniyati o`rnida tarkib topadi. Amirobodliklarning xo`jalik shakli muammolidir. Ba`zi tadqiqotchilar Suvyorganliklar kabi Amirobodlklar ham chorvadorlar bo`lishgan deb hisoblashsa, boshqalari ularni Aqchadaryo havzasidagi ziroatchi-chorvador qabilalar deb hisoblaydilar.[72]

Qazishmalar jarayonida Yakka-Porson 2 dan 2 km janubi-g`arbda joylashgan aholi manzilgohi yonidan o`tgan 15 m kenglikdagi daryo o`zanining qirg`oqlari to`g`onlar bilan mustahkamlanganligi aniqlangan. To`g`onlangan daryo irmog`idan meridional ravishda har 1,8 km masofada kanallar chiqarilga bo`lib, yelpigichsimon bu kanal tarmoqlari ekin maydonlarini suv bilan ta`minlagan.[73] Ammo aholin turar-joylaining yarim yerto`la shaklda ekanligi ularning asosiy mashg`uloti ovchilik, baliqchilik va chorvachilik ekanligini ko`rsatadi.

Qadimgi Xorazmning o`ng tomonidagi qadimgi sug`orilgan yerlarda miloddan avvalgi VII asrgacha bo`lgan davrda yer ustiga qurilgan katta yodgorliklar yo`q. Sopol idishlar ham kulolchilik charxisiz, hech narsa aralashmagan loydan qo`lda ishlangan.[74]

Shu tariqa ushbu paragrafni quyidagicha yakunlash mumkin:

Xorazmda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida bronza davriga mansub aholi tomonidan qoldirilgan manzilgohlar ro`yxatga olingan. Mazkur manzilgohlar S.P.Tolstov rahbarligida Quyi Amudaryo havzasida 80 ga yaqin bronza davriga oid bo`lgan manzilgohlarni ro`yxatga oldi. Ularning aksariyatida qazish ishlari olib borildi. Ayniqsa, Ko`kcha 3 qabrlaridan olingan idish-tovoqlar, mehnat qurollari, zeb-ziynat buyumlari, inson suyaklari bronza jamiyatida kechgan jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Antropologik ashyolar Quyi Amudaryo havzasida etnogenez va ajdodlarimizning etnik tarixini yoritish imkonini berdi. Endi, Quyi Amudaryo havzasining bronza jamiyatida kechgan

[72]Вайнберг Б.И.Этнография Турана.1999.стр.235.
[73]Толстов С.П. По древным дельтам,1962,стр.68.
[74]Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма,1957.стр.67.

jarayonlar tadqiqochilar asarlarida yoritilishi tarixiga e`tiborni qaratamiz.

## 2.2 Bronza davrida kechgan etnik jarayonlar va etnik makonlarning vujudga kelishi.

Xorazm bronza davri tarixi, tadqiqotchi S.P.Tolstovning uchta monografiyasida aksini topgan. Uning ikki monografiyasida, keyinchalik uchinchi asarida bronza davri tarixi keng tarzda yoritildi.[75] Tadqiqotchi asarlarida Tozabog`yob xo`jaligini olib borgan ko`chmanchi chorvador, Suyorganliklarni esa, janubdan kelgan degan g`oya o`rin olgan. Tadqiqotchining Tozabog`yobliklar to`g`risidagi xulosasiga qo`shilish mumkin. Lekin Suyorganliklarni janubdan kelgan degan fikrga qo`shilib bo`lmaydi. Chunki Suyorganliklar olib borgan xo`jalik yo`nalishi,turar-joylar qurilishi janub aholisida mavjud bo`lgan taraqqiyotda aks etmaydi. Janub aholisi allaqachon o`troq,sun`iy sug`orish asosida sug`orma dehqonchilik va loy me`morchiligi masalasida boy hayotiy tajribaga ega ekanligini arxeologik natijalar isbotlagan. Birinchi o`zbek arxeologi Y.G`.G`ulomov o`z asarida S.P.Tolstov fikriga qo`shilmaganini, Suyorganliklar Kaltaminorliklar avlodi degan xulosani qayd qilgan.[76] Akademik Y.G`.G`ulomov fikri haq gap. Chunki Amudaryo suv sathi kamayishi oqibatida Oqchadaryo irmog`i suv oqimi o`ta darajada pasayib ketadi. Mavjud bo`lgan suv havzalari suvi uzoq davom etmaydi, ular havo harorati yuqori darajada bo`lganligi bois tezda qurib qoladi. Natijada turmush tarzini olib borgan aholi suvu bor havzalar tomon ko`chib borishi tabiiy. Shuning uchun ham tub aholining yangi avlodi vaziyatni to`g`ri anglab, yangidan vujudga kelgan suv havzalari etaklariga kelib, xo`jalik yo`nalishlarini davom ettirganlar. Xorazmning bronza davri tarixini yoritgan ma`lumotlar M.A.Itina asarida o`z ma`nosini topgan.Tadqiqotchi Suyorgan madaniyatini uch bosqichga ajratgan:

1.Qamishli.

2.Bozorqal`a.

---

[75]Толстов С.П.Древний Хорезм.Москва.„Наука’’.1948.Он же по следам древнехорезмийской цивилизатции. М.Л.1948.Он же по древным дельтам Окс и Яксарта.М.„Наука’’.1962.
[76]Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма/С древнейшых времен до нашых дней.Т.”Фан”.1959.стр.51-54.

3.Qoundi.

1-bosqich Qamishli makonidan olingan ashyolarning tahlili asosida ajratilgan. Mazkur manzilgoh shimoliy Oqchadaryo havzasining janubiy qismida joylashgan.

2.Bozor bosqichiga Ko`kcha 2,Yonbosh 6,Bozor 2,4 manzilgohlari materiallari asos bo`lgan.

3.Qoundi bosqichiga hajmi 250x150 metr bo`lgan Qoundi 1 manzilgohidan olingan ashyolar asos bo`lgan.

Suyorganliklar xo`jaligi miliddan avvalgi X-XII asrlar bilan belgilangan. Shu bilan birga tadqiqotchi Tozabog`yob madaniyatini ham uch bosqichga ajratgan.

1-bosqich. Ilk davr (miloddan avvalgi XV-XIV asrlar)

2-bosqich. O`rta davr (miloddan avvalgi XV-XIII asrlar)

3-bosqich. So`nggi davr (miloddan avvalgi XIII-XII yoki XII-X asrlar).[77] Tadqiqotchi Tozabog`yobliklar xo`jaligida dehqonchilik va sug`orish tizimining mavjudligiga ishora qiladi degan xulosaga kelgan.[78] Tadqiqotchining Andronova madaniyatini yaratganlar Oqchadaryo janubida uzoqqa qolib ketmagan degan degan xulosasiga qo`shilib bo`lmaydi.[79] Rus olimlari va O`zbekiston tarixchilari tomonidan hamkorlikda yaratilgan o`quv qo`llanmalarda bronza davri tarixi yoritilishi jarayonida Suyorgan va Tozabog`yobliklar to`g`risida ma`lumotlarni jalb qilganlar.[80] XX asrning 70-90-yillarida tarixchi olimlar tomonidan e`lon qilingan O`zbekiston SSR tarixining bronza davriga bag`ishlangan bo`limida Xorazm vohasi vohasi bronza davri kiritilgan.

Etnograf olim I.Jabborov risolasida Xorazmning bronza davri tarixi atroflicha yoritilgan. Unda xo`jalik yo`nalishi, mehnat qurollari, turar-joylar va etnik jarayonlar qayd qilingan.[81]

Xorazmning bronza davri tarixi maxsus monografiyada o`z ma`nosini topgan.[82]

---

[77] Итина М.А. История степных племен южного Приаралья.(II-начало/ТХАЭЭ,Т Х, М .1977.стр.145-148.

[78] Итина М.А. Из истории населения степной полоси Среднеазиатского междуречья в эпохи бронзы// КСИА,Вып 122,М.1970.

[79] Итина М.А. История степных племен южного Приаралья.(II-начало/ТХАЭЭ,Т Х, М.1977.стр.41-44,104-105.

[80] Узбекистон халклари тарихи.1955,1967.

[81] Жабборов И. Кухна харобалар сири.Тошкент.Узбекистон,1966.

[82] Низовья Амударьи,Сарыкамыш,Узбой.М.,,Наука'',1960.

Tadqiqotchilar Suyorgan madaniyatining kelib chiqish masalasiga e`tibor qaratib, o`troq hayot, dehqonchilik madaniyati va tarixiy sanasini yoritib, janubdan kelgindilar degan xulosani qayd qilganlar.[83] T.A Trofimova esa Ko`kcha-3 manzilidan topilgan antropologik ashyolar asosida Xorazm vohasi aholisining etnik tarixini yoritgan. Uning fikricha, yog`ochband va androno tili odamlari turmush tarzini olib borganlar.[84] V.M.Masson fikriga ko`ra, Suyorgan va Tozabog`yobliklar o`rtasida genetik aloqalar amalga oshirilgan.[85] Taddqiqotchi fikriga qo`shilish mumkin. Chunki ikki xo`jalik sohiblarining omuxtalashishi natijasida so`nggi bronza va ilk temir davrida Amirobod atamasida etnotoponomika vujudga kelgan. Markaz va O`rta Osiyo olimlari hamkorligida nashr qilingan to`plamda Suyorgan va Tozabog`yob madaniyatlariga tegishli ma`lumotlar o`rin olgan.[86] Tadqiqotchi M.Jo`raqulov O`rta Osiyo ibtidoiy arxeologiyasini yoritish chog`ida Xorazmning Suyorgan va Tozabog`yob madaniyatlari ma`lumot sifatida keltirilgan.[87] N.A.Avanesova esa, O`rta Osiyoda bronza jamiyatini qamrab olgan jarayonda Xorazmning bronza materiallari jalb qilishni, Suyorgan va Tozabog`yob materiallaridan foydalanilgan.[88] Tadqiqotchilar J.Kabirov, A.Sagdullayevlarning o`quv qo`llanmasining bronza davri bo`limida Quyi Amudaryo havzasida mavjud bo`lgan Suyorgan va Tozabog`yobliklar tarixi qayd qilinadi.[89]

Mustaqillik yillarida Xorazmda bronza davriga oid aholi manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan. Xorazm ekspeditsiyasi faoliyati barham topgan. Qoraqalpog`iston Respublikasi olimlari Avstraliyaning Sidney Universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan ekspeditsiya a`zolari antik davrga oid yodgorliklarni o`rganishni olib bordilar xolos. Tadqiqotchilar asosan Xorazm

---

[83] Толстов С.П. Итина М.А Проблема Суярганский культуры.М.„Наука’’1960.стр.14-35.
[84] Трофимова Т.А. Черепа из могильника Тазабагябской культуры Кокча-3/МХЭ,Вып-5,М.1961,стр.97-146.
[85] Массон В.М.Средная Азиа и Древный Восток,М-Л„Наука’’.1964,стр.184-185.
[86] Средная Азиа в эпоху камня и бронзы.Л-9„Наука’’,1966.
[87] Журакулов М. Урта Осиё ибтидоий археологияси.Самарканд.1984.
[88] Аванесова Н.А. Средная Азиа в эпоху бронзы.Самарканд.1989.
[89] Кабиров Ж. Сагдуллаев А. Урта Осиё археологияси,Тошкент.„Укитувчи’’,1990.

ekspeditsiyasi xodimlari asarlaridagi ma`lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil asosida monografiya, to`plam, risola, maqola va tezislarni e`lon qilish bilan shug`ullandilar xolos. Q.Sobirov risolasida Xorazmning bronza davriga oid fikr-mulohazalarni qayd qilgan bo`lsa, A.Asqarovning o`quv darsligida bronza davri, Suyorgan va Tozabog`yob madaniyati tarixi yoritilgan.[90] A.Asqarovning oliy o`quv yurtlari talabalari uchun nashr qilingan o`quv qo`llanmasida bronza davri tarixini yoritilishida Xorazm bronzasi materiallari jalb qilingan.[91] Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Tuyamo`yin hududi tizimiga kirgan Kaparas vohasi bronza davri tarixi Qo`shbuloq, Qarriqizil, Sulton Sanjar materiallari yordamida yoritilgan.[92] Tadqiqotchilar Q.Sobirov, S.Ro`zimovlar Zarafshon va Xorazm vohasining madaniy-xo`jalik aloqalarini yoritishda bronza davriga mansub Suyorgan, Tozabog`yob madaniyatlarining Zamonbobo xo`jalik sohiblari turmush tarzida o`xshashlikka e`tibor qaratganlar.[93] Tadqiqotchi Q.Sobirovning O`rta Osiyo mudofaa inshootlari tarixini o`rganishda Xorazm bronzasi tarixiga oid tarixiy ma`lumotlar qayd qilinadi. Unda Xorazm bronza davrida turar-joylar yerto`la ekanligi ko`rsatib o`tiladi.[94]

Xorazm vohasining bronza davrida antropogen landshaft va madaniy xo`jalik masalalari to`g`risida ma`lumotlar Q.Sobirov, B.Bobojonovlar maqolasida qarab chiqilgan. Maqolada tez-tez o`zgarib turadigan suv havzalari faoliyati va u bilan bog`liq bo`lgan masalalar to`g`risida ma`lumot beriladi.[95] A.Asqarov tomonidan e`lon qilingan o`quv qo`llanmada Xorazmda bronza davrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ovchilar hayotida chorvachilik yuz berganligiga e`tabor qaratilgan.[96]

---

[90] Аскаров А. Узбекистон тарихи.Т.„Укитувчи'' 1997.

[91] Аскаров А. Узбекистон халклари тарихи.Т.№1,1992.

[92] Итина М.А. Памятники неолита и бронзы/Древности южного Хорезма.М„Наука''.1991.

[93] Собиров Қ, Рўзимов С. Зарафшон ва Хоразм вохаларининг маданий-хўжалик алоқалари тарихидан. Мустақиллик йилларида ватанимиз тарихини янгича ўрганишнинг долзарб муаммолари. Қисм-1,С.: 2002;

[94] Собиров К. Кадимги урта Осиё мудофаа иншоотлари тарихидан.Т.2003.10-12-бетлар.

[95] Собиров К. Бобожонов Б.Хоразм вохасида антропоген ландшафт ва кадимги дехкончилик вохаларининг вужудга келишига доир баъзи масалалар.//История и материалная культура Каракалпакстана, Нукус, 2006, стр.38.

[96] Асқаров А. Ўзбек халқининг етногенези ва этник тарихи. Т.„Университет'' 2007, 104-бет.

Tadqiqotchilar Q.Sobirov, O`.Abdullayevlar Xorazmda etnomadaniy munosabatlar tarixini yoritishda Suyorgan va Tozabog`yobliklarning yangi etnik jarayonlarini hosil qilishiga oid fikr-mulohazalarini qayd qilganlar.[97] Mualliflar tomonidan tayyorlanib nashr qilingan to`plamda Xorazmning bronza davri tarixidan Suyorgan va Tozabog`yob madaniyatlari, ularning xronologiyasi, turar-joylar shakliga oid mulohazalar qayd qilinadi.[98] Lekin tadqiqotchilar ekspeditsiya xodimlarining bronza tarixiga oid fikrlarini nazariy-tahlil qilmaganlar. N.Egamberdiyevaning uslubiy qo`llanmasida Xorazm bronza tarixiga keng o`rin berilgan. Uslubiy qo`llanmada Suyorgan va Tozabog`yob madaniyatlari haqida fikr-mulohazalar o`rin olgan. Madaniy aloqalar, manzilgohlarning joylashishi, moddiy va ma`naviy madaniyat yoritilgan.[99] A.Qurbonov, Z. Odilovlarning ma`lumotiga ko`ra, bronza jamiyati manzarasini hosil qilgan Suyorgan va Tozabog`yobliklar tomonidan ikki madaniyat yaratilgan.[100] B.Yaqubov esa, bronza davrida tarixiy taraqqiyot va u bilan bog`liq bo`lgan etnomadaniy munosabatlarni yoritishga erishgan. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, etnik jarayonlar tahlil qilingan.[101] I.Jabborovning ilmiy ommabop asarida Xorazmning bronza davri tarixi keng o`rin olgan. Asarda Suyorgan va Tozabog`yobliklar xo`jaligi, Anqa-B, Ko`kcha-3 manzil va qabridan olingan ashyolar asosida xulosalar qayd qilingan.[102]

Yuqorida keltirilgan tarixiy ma`lumotlar asosida quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin.

- Tadqiqotchilar Xorazmda bronza davri manzilgohlarida arxeologik izlanishlarni olib bormaganlar.

[97] Собиров К, Абдуллаев У, Этномаданий муносабатлар: шаклланиш ва ривожланиш босқичлари// Жамият ва бошқарув, Т, „Академия'', №4,2007. 61-бет.

[98] Кадимги Урта Осиё тарихида лавхалар.//Масъул мухаррир А. Сагдуллаев. Т. „Фан ва технология'' 2008. 21-22-бетлар. [99] Эгамбердиева Н. Археология.Т.2011.

[100] Курбанов А, Одилов З, Хоразм бронза даврида//„Узбекистон худудида кечган этномаданий муносабатлар ва унинг давлвтчилик шаклланишидаги урни'' республика илмий анжумани материаллари. Хива, 2012, 25-бет.

[101] Якубов Б. Куйи Амударё хавзасида этномаданий жараёнлар ва тарихий тараккиёт. (Милоддан аввалги V-I минг йиллик бошлари)// Уша тупламда, 48-bet.

[102] Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани.Т. „Узбекистон'' 2012,52-54-бетлар.

- Tadqiqotchilar asosan Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida qayd qilingan ma`lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilganlar xolos.

- Ekspeditsiya xodimlarining asarlari mazmunini qamrab olgan tarixiy ma`lumotlar tadqiqotchilar tomonidan yangi zamon ruhi asosida tadqiqotlar hanuzgacha o`z yakunini topmagan.

## Xulosa

Mavzu ish mazmunini qamrab olgan ma`lumotlarni nazarga olib, quyidagi yakuniy xulosa qayd qilinadi.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari yarim asrdan ko`proq davrda olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida Xorazmni alohida mintaqa va arxeologik yodgorliklarga boy ekanligini butun dunyoga mashhur qilgan. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining Xorazm vohasi aholisini dunyoga tanishtirishdagi xizmati katta ekanini alohida ta`kidlash lozim. Tadqiqotchilar asarida Quyi Amudaryo havzasida neolit va bronza massivlari to`g`risida, Amudaryo tarixiga oid ma`lumotlar o`rin olmagan. S.P.Tolstovning bronza tarixini yoritishda ba`zi fikrlari tadqiqotchilar tomonidan munozaraga olib kelganligi ma`lum. Tadqiqotchilar Suyorganliklar xo`jaligi masalasida munozarani boshladilar, bu jarayon mustaqillik yillarida davom etgan.

Ta`kidlash kerakki, mustaqillik yillarida tadqiqotchilar e`tiboridan chekkada qolgan masala, sho`ro davrida nashr qilingan ishlarni yangi zamon ruhidan kelib chiqib, tahlil qilish asosida alohida tadqiqot, ya`ni Xorazmning ibtidoiy madaniyati tarixshunosligi fani ilmiy dunyo yuziga chiqqani kuzatilmaydi. Bitiruv malakaviy ishimizda yuqorida qayd qilingan muammoning ba`zi tomonlarini yoritdik xolos. Xorazmning ibtidoiy madaniyati tarixshunosligini mukammal tarzda yoritish murakkab, shu bilan bir qatorda dolzarb hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

**I. Nazariy-siyosiy adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Асарлар тўплами.- Т., “Ўзбекистон”, 1998.

2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халкни халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. -Т. “Шарқ”, 1998.

3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т., “Шарқ”, 1998.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч.-Т., ”Ўзбекистон”, 2008.

5. Каримов И.А Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараккиёт йўли. Тошкент. 1992-йил.

**II. Asosiy adabiyotlar**

1. Аскаров А. Ўзбекистон тарихи. Т. „ Ўкитувчи’’ 1997.

2. Аскаров А. Ўзбекистон халклари тарихи. Т. Т-1, 1992.

3.Аскаров А. Ўзбек халкининг этногенези ва этник тарихи. Т. „Университет’’ 2007.

4. Аванесова Н.А. Средняя Азиа в эпоху бронзы. Самарканд. 1989.

5. Абдуллаев Т. Хоразм неолит даври ёдгорликлари. Профессор-ўкитувчи ва талабаларнинг илмий анжуман материаллари. Т. 2003.

6. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Т. „ Ўкитувчи’’. 1997.

7. Итина М. А. История степних племен южного Приаралъя (II началоI тис-я до н. э.). ТХАЭЭ. М., «Наука», 1977.

8. Итина М.А. Древности южного Хорезма. М., «Наука», 1991.

9. Итина М.А. Памятники неолита и бронзы//Древности Хорезма.М, „Наука’’ 1991.

10. Жўракулов М., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А. Зарафшон вохасининг ибтидоий маданияти. Самарканд., 1994.

11. Жўракулов М. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Самарканд. 1984.

12. Жўракулов М. Сазаганда янги тош даври кишилари макони //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. №8. Ташкент. 1972.

13. Кабиров А. Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси.-Ташкент: „Ўкитувчи'', 1990.
13. Коробкова Г.Ф. Орудия труда в хозяйстве неолитических племен Средный Азии//МИА,158.Л,1959.Он же культуры локалные варианты мезолита и неолита Средный Азии(ИА,№3,М.1975).
14. Кой-крилган-калья (Памятник культури в IV в. до н. э. IV в.н.э) в древнем Хорезме. М., «Наука», 1967.
15. Курбаниязов Р. „Хоразм географияси''. Урганч. 1998.
16. Массон В.М. Средняя Азия и Древный Восток М, «Наука», 1964.
17. Собиров К. „Кадимги Ўрта Осиё мудофаа иншоотлари тарихидан''. Т. 2003.
18. Собиров Қ, Рўзимов С. Зарафшон ва Хоразм вохаларининг маданий-хўжалик алоқалари тарихидан. Мустақиллик йилларида ватанимиз тарихини янгича ўрганишнинг долзарб муаммолари. Қисм-1, - С.: 2002;
19. Собиров К. Бобожонов Б.Хоразм вохасида антропоген ландшафт ва кадимги дехкончилик вохаларининг вужудга келишига доир баъзи масалалар.//История и материальная культура Каракалпакстана, Нукус, 2006.
20. Собиров К. Ибтидоий кулбадан шахарлар сари. Т.: Ўзбекистон, 1992.
21. Собиров К. Атамуратова Д. Марказий Осиё кадимги дунёси минтакавий ривожланишида Хоразм вохасининг тутган ўрни.//ЎzМУ хабарлари №3,2011.
22. Средная Азиа в эпоху камня и бронзы.№9.М. „Наука'',1966.
23. Толстов С.П Древний Хорезм.Москва.„Наука''.1948.
24. Толстов С.П. По Древним дельтам Окса и Яксарта.Москва.1962.
25. Толстов С.П,Итина М.А. Проблема Суярганский культури. СА, НИ. 1960.
26. Трофимова Т.А. Черепа из могильника Тазабагябской культуры Кокча-3 //МХЭ,Вып-5, М. 1961.
27. Ўзбекистон халклари тарихи // Масъул мухаррир А.Аскаров.-Т.: „Ўкитувчи'' , 1992.

28. Холматов Н. Ибтидоий жамоалар турар-жойлари тўгрисида баъзи мулохазалар. Самарканд. 2003. Ўзбекистонда археологик тадкикотлар. 2002 //№3, Т. 2003.